Bundan kelib chiqadiki, (10) shart  $u = \text{sign}\psi_2$ ,  $\psi_2 \neq 0$  funksiyani ajratadi, ya'ni

Bu holda chegara muammosi (15) quyidagilardan iborat

$$H_i = -f^0 u + \psi_2(t) u_m. \quad (17)$$

$u=+1$ ,  $u=-1$  oralig'ida (9), (17) tadqiq qilishga o'tamiz.

$\psi_2(t)$  funksiya  $[t_0, t]$  kesimda birdan ortiq nolga ega bo'lmasligini ko'rsatamiz. Bunday, ya'ni  $\psi_2(t) = 0: t \in [t_0, T]$  bo'lmasin. Unda, agar  $t \in [t_0, T]$  nuqtalarda funksiya  $\psi_2(t) \neq 0$  bo'lsa, u holda (10), doimiy  $\psi_1 = -\dot{\psi}_2(t)$  bo'lsa, bu mumkin emas. Endi  $t_i$  nuqtalaridan birida funksiya grafigi  $t$  o'qiga tegsin. Unda  $\psi_2(t) = 0$ , ya'ni (10) doimiy  $\psi_1 = 0$  kuchga ega. Bu yerdan

$$H \equiv 0, \quad t_0 \leq t \leq T \quad (18)$$

$\psi_0 = 0$  dan kelib chiqadi. Demak, (10), (14) ga zid bo'lgan ayniyat mavjud

$$\psi_2(t) = 0, \quad t \in [t_0, T], \quad \psi_1 = 0, \quad \psi_0 = 0 \quad (19)$$

(19) tenglik mumkin emas, chunki  $\psi_2(t)$  yuqorida faqat bitta nolga ega bo'lishi mumkinligi aniqlangan. Shunday qilib  $\psi_0 \leq 0$ . Bunday holda, (19) dan quyidagilar kelib chiqadi

$$u_k = \text{sign} \psi_2(t) = \begin{cases} 1, & \psi_2(t) > 0 \\ -1, & \psi_2(t) < 0 \end{cases}, \quad k=2, 4, \dots, 2n; \quad (20)$$

Ya'ni boshqarish  $u_k(t)$  bitta nuqtada almashlab ulash imkoniyatiga ega.

To'rt g'ildirakli traktorni pastlikga tushishdagi harakatini tadqiq qilish uchun Embarcadero Delphi XE3 dasturlash muhitida Runge-Kutta sonli usulini qo'llab dastur vositasidan foydalanamiz [4]. Boshlang'ich shart  $t=0$  asosida hisoblash eksperimenti o'tkazildi. 2- rasmda boshlang'ich parametrlar va 3-rasmlarda hisoblash natijalar keltirilgan.

Hisoblash eksperimentlari traktor g'ildiragi shinalarining bukilishlari  $h_{sh}=30\text{mm}=0.03\text{m}$  bo'lganda quyidagi parametrlarda o'tkazilgan.


| Kiritish parametrlari                                |         |  |      |
|--|---------|--|------|
| PTMning massasi (J1, kg)                             | 4750,0  | PTMni old ko'prigining eni (Bpk, m)        | 1,8  |
| Oldingi chap g'ildirakning massasi (J2L, kg)         | 895,0   | PTMni orqa ko'prigining eni (Bzk, m)       | 1,8  |
| Oldingi o'ng g'ildirakning massasi (J2P, kg)         | 855,0   | Shinaning bukilishi (hs, m)                | 0,03 |
| Orqa chap g'ildirakning massasi (J3L, kg)            | 1525,0  | Gorizontaal tebranishlar tezligi (vx, m/s) | 1,38 |
| Orqa o'ng g'ildirakning massasi (J3P, kg)            | 1475,0  | PTMni qiyalanish burchagi (beta, grad.)    | 0    |
| Dvigatelnining massasi (J4, kg)                      | 0       | Doimiy (g, m/s^2)                          | 9,81 |
| Massalar markazining balandligi (hc, m)              | 1       | Boshqaruv (uk)                             | 1    |
| PTMni balandlikka ko'tarilish burchagi (teta, grad.) | 7       |  |      |
| Hisoblash parametrlari                               |         |  |      |
| Hisoblash vaqti (t_kon, s)                           | 1       | h printni qiymati                          | 0,1  |
| Hisoblash qadami: h_calcul                           | 0,00001 | Grafiklarni kvantlanishi                   | 4    |

2-rasm. To'rt g'ildirakli traktor harakatini optimal boshqarishni hisoblash uchun boshlang'ich parametrlar


| PTMni pastlikka tushishidagi gorizontal tebranishlari va optimal boshqarish parametrlarining hisoblar |          |          |          |          |          |          |          |          |          |           |
|---|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|-----------|
| t - vaqt  | f1 - PTM | f2 - PTM | f3 - PTM | f4 - PTM | f5 - PTM | f6 - PTM | f7 - PTM | f8 - PTM | f9 - PTM | f10 - PTM |
| 0   | 0        | 1        | 0        | 1,12187  | 0        | 1,12187  | 0        | 1,12187  | 0        | 1,12187   |
| 0,1   | 0,09045  | 0,81594  | 0,09697  | 0,82742  | 0,09697  | 0,82742  | 0,09697  | 0,82742  | 0,09676  | 0,82558   |
| 0,2   | 0,16669  | 0,73007  | 0,17103  | 0,68797  | 0,17103  | 0,68797  | 0,17103  | 0,68797  | 0,17082  | 0,68946   |
| 0,3   | 0,23996  | 0,74639  | 0,24022  | 0,71405  | 0,24022  | 0,71405  | 0,24022  | 0,71405  | 0,24019  | 0,71575   |
| 0,4   | 0,31689  | 0,79123  | 0,31533  | 0,7867   | 0,31533  | 0,7867   | 0,31533  | 0,7867   | 0,31541  | 0,787     |
| 0,5   | 0,39742  | 0,81435  | 0,39629  | 0,82421  | 0,39629  | 0,82421  | 0,39629  | 0,82421  | 0,39635  | 0,8237    |
| 0,6   | 0,47888  | 0,81183  | 0,47875  | 0,82012  | 0,47875  | 0,82012  | 0,47875  | 0,82012  | 0,47876  | 0,81969   |
| 0,7   | 0,55952  | 0,80099  | 0,55988  | 0,80255  | 0,55988  | 0,80255  | 0,55988  | 0,80255  | 0,55986  | 0,80247   |
| 0,8   | 0,63925  | 0,79484  | 0,63954  | 0,79258  | 0,63954  | 0,79258  | 0,63954  | 0,79258  | 0,63952  | 0,79269   |
| 0,9   | 0,7187   | 0,79507  | 0,71875  | 0,79296  | 0,71875  | 0,79296  | 0,71875  | 0,79296  | 0,71875  | 0,79307   |
| 1   | 0,79834  | 0,79767  | 0,79825  | 0,79717  | 0,79825  | 0,79717  | 0,79825  | 0,79717  | 0,79826  | 0,7972    |

3- rasm. Hisoblash natijalari

Hisoblash natijalari 4,5- rasmlarda alohida “Tezliklar”, “Tezlanishlar” harakat parametrlarini o‘tish jarayonining  $u=+l$  va  $u=-l$  oraliqdagi grafiklari keltirilgan.



4-rasm. To‘rt g‘ildirakli traktor harakatini o‘tish jarayonidagi tezliklar grafiklari



5-rasm. To‘rt g‘ildirakli traktor harakatini o‘tish jarayonidagi tezlanishlar grafiklari

To‘rt g‘ildirakli traktorni pastlikka tushishdagi gorizontal tebranma harakatini tadqiq qilish uchun quyidagi boshlang‘ich parametrlarda (6-rasm) hisoblash eksperimenti

o'tkazildi va 7,8-rasmlarda olingan natijalar, 9-11 rasmlarda ularning grafik ko'rinishlari keltirilgan.

### Kiritish parametrlari

|  |                                     |  |                                     |
|--|-------------------------------------|--|-------------------------------------|
| PTMning massasi (J1, kg)                             | <input type="text" value="4750,0"/> | Horizontal tebranishlarda PTMni harakatlantiruvchi kuch (M1, N)                          | <input type="text" value="12730"/>  |
| Oldingi chap g'ildirakning massasi (J2L, kg)         | <input type="text" value="895,0"/>  | Yo'ning notekisligi balandligi (hp, m)   | <input type="text" value="0,07"/>   |
| Oldingi o'ng g'ildirakning massasi (j2P, kg)         | <input type="text" value="855,0"/>  | O'ng g'ildiraklar uchun notekisliklar oralig'i (ll, m)                                   | <input type="text" value="0,9"/>    |
| Orqa chap g'ildirakning massasi (J3L, kg)            | <input type="text" value="1525,0"/> | Chap g'ildiraklar uchun notekisliklar oralig'i (lp, m)                                   | <input type="text" value="0,9"/>    |
| Orqa o'ng g'ildirakning massasi (J3P, kg)            | <input type="text" value="1475,0"/> | Boshqariluvchi orqa g'ildiraklarning burilish burchagi (alpha, grad.)                    | <input type="text" value="0"/>      |
| Dvigatelning massasi (J4, kg)                        | <input type="text" value="0"/>      | Boshqariluvchi orqa g'ildiraklarning yonga siljib (toyib) ketish burchagi (delta, grad.) | <input type="text" value="0,01"/>   |
| Horizontal tebranishlar tezligi (vx, m/s)            | <input type="text" value="1,38"/>   | PTMni old ko'prigining kengligi (Bpk, m)   | <input type="text" value="1,8"/>    |
| Massalar markazining balandligi (hc, m)              | <input type="text" value="1"/>      | PTMni orqa ko'prigining kengligi (Bzk, m)  | <input type="text" value="1,8"/>    |
| PTMni qiyalanish burchagi (beta, grad.)              | <input type="text" value="0"/>      | Shinadagi bosim (Si, atm.b.)   | <input type="text" value="103100"/> |
| PTMni orqa g'ildiragining radiusi (rk1, m)           | <input type="text" value="0,785"/>  | Shinaning bukilishi (hs, m)  | <input type="text" value="0,03"/>   |
| PTMni oldingi g'ildiragining radiusi (rk2, m)        | <input type="text" value="0,43"/>   | Doimiy (g, m/s^2)  | <input type="text" value="9,81"/>   |
| PTMni balandlikka ko'tarilish burchagi (teta, grad.) | <input type="text" value="7"/>      |  |                                     |

### Hisoblash parametrlari

|                            |                                      |                          |                                  |
|----------------------------|--------------------------------------|--------------------------|----------------------------------|
| Hisoblash vaqti (t_kon, s) | <input type="text" value="1"/>       | h printni qiymati        | <input type="text" value="0,1"/> |
| Hisoblash qadami: h_calcul | <input type="text" value="0,00001"/> | Grafiklarni kvantlanishi | <input type="text" value="4"/>   |

6-rasm. To'rt g'ildirakli traktorni pastlikga tushishdagi gorizontal tebranishlarini hisoblash uchun boshlang'ich parametrlar

**PTMni pastga tushishdagi gorizontal tebranishlari parametrlarining hisoblangan qiymatlari:**


| t - vaqt | f1 - PTM | f2 - PTM | f3 - PTM | f4 - PTM | f5 - PTM | f6 - PTM | f7 - PTM | f8 - PTM | f9 - PTM | f10 - PTM |
|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|-----------|
| 0        | 0        | 2,68     | 0        | -0,28827 | 0        | -0,28827 | 0        | -0,28827 | 0        | -0,28827  |
| 0,1      | 0,14462  | 1,1639   | 0,12341  | 1,51806  | 0,12341  | 1,51806  | 0,12341  | 1,51806  | 0,12341  | 1,51806   |
| 0,2      | 0,26981  | 1,3237   | 0,26771  | 1,3955   | 0,26771  | 1,3955   | 0,26771  | 1,3955   | 0,26771  | 1,3955    |
| 0,3      | 0,40695  | 1,42192  | 0,40869  | 1,44702  | 0,40869  | 1,44702  | 0,40869  | 1,44702  | 0,40869  | 1,44702   |
| 0,4      | 0,55613  | 1,56908  | 0,56002  | 1,58069  | 0,56002  | 1,58069  | 0,56002  | 1,58069  | 0,56002  | 1,58069   |
| 0,5      | 0,71774  | 1,61013  | 0,71885  | 1,52737  | 0,71885  | 1,52737  | 0,71885  | 1,52737  | 0,71885  | 1,52737   |
| 0,6      | 0,86107  | 1,17544  | 0,85031  | 1,06276  | 0,85031  | 1,06276  | 0,85031  | 1,06276  | 0,85031  | 1,06276   |
| 0,7      | 0,94973  | 0,65644  | 0,9361   | 0,72337  | 0,9361   | 0,72337  | 0,9361   | 0,72337  | 0,9361   | 0,72337   |
| 0,8      | 1,01405  | 0,77855  | 1,01555  | 1,01475  | 1,01555  | 1,01475  | 1,01555  | 1,01475  | 1,01555  | 1,01475   |
| 0,9      | 1,14787  | 2,14587  | 1,18292  | 2,44673  | 1,18292  | 2,44673  | 1,18292  | 2,44673  | 1,18292  | 2,44673   |
| 1        | 1,38068  | 1,62329  | 1,36481  | 0,76885  | 1,36481  | 0,76885  | 1,36481  | 0,76885  | 1,36481  | 0,76885   |

7-rasm. To'rt g'ildirakli traktorni pastlikga tushishdagi gorizontal tebranishlarini hisoblash natijalari


**PTMni pastga tushishdagi gorizontaal tebranishlari parametrlarining hisoblangan qiymatlari:**

| mm - PTi | mk1 - PT | mk2 - PT | mk3 - PT | mk4 - PT | Rapl - PT | Rbpp - P | Razl - PT | Rbzp - P | jm - PTMi | jpl - PTMi | jpp - PTM | jzl - PTMi | jzp - PTM |
|----------|----------|----------|----------|----------|-----------|----------|-----------|----------|-----------|------------|-----------|------------|-----------|
| 12730    | -258,003 | -246,472 | -439,615 | -425,201 | 2194,987  | 2096,887 | 3740,062  | 3617,437 | 4750      | 895        | 855       | 1525       | 1475      |
| 5528,54E | 1358,66E | 1297,93E | 2315,03E | 2239,13E | 2194,987  | 2096,887 | 3740,062  | 3617,437 | 4750      | 895        | 855       | 1525       | 1475      |
| 6287,57E | 1248,96E | 1193,14E | 2128,13E | 2058,35E | 2194,987  | 2096,887 | 3740,062  | 3617,437 | 4750      | 895        | 855       | 1525       | 1475      |
| 6754,12E | 1295,08E | 1237,20E | 2206,70E | 2134,35E | 2194,987  | 2096,887 | 3740,062  | 3617,437 | 4750      | 895        | 855       | 1525       | 1475      |
| 7453,12E | 1414,71E | 1351,49E | 2410,55E | 2331,52E | 2194,987  | 2096,887 | 3740,062  | 3617,437 | 4750      | 895        | 855       | 1525       | 1475      |
| 7648,10E | 1366,99E | 1305,90E | 2329,24E | 2252,87E | 2194,987  | 2096,887 | 3740,062  | 3617,437 | 4750      | 895        | 855       | 1525       | 1475      |
| 5583,35E | 951,174E | 908,663E | 1620,71E | 1567,57E | 2194,987  | 2096,887 | 3740,062  | 3617,437 | 4750      | 895        | 855       | 1525       | 1475      |
| 3118,06E | 647,419E | 618,484E | 1103,14E | 1066,97E | 2194,987  | 2096,887 | 3740,062  | 3617,437 | 4750      | 895        | 855       | 1525       | 1475      |
| 3698,12E | 908,203E | 867,613E | 1547,49E | 1496,75E | 2194,987  | 2096,887 | 3740,062  | 3617,437 | 4750      | 895        | 855       | 1525       | 1475      |
| 10192,8E | 2189,82E | 2091,95E | 3731,25E | 3608,92E | 2194,987  | 2096,887 | 3740,062  | 3617,437 | 4750      | 895        | 855       | 1525       | 1475      |
| 7710,63E | 688,123E | 657,369E | 1172,50E | 1134,05E | 2194,987  | 2096,887 | 3740,062  | 3617,437 | 4750      | 895        | 855       | 1525       | 1475      |


8-rasm. To'rt g'ildirakli traktorni pastlikga tushishdagi gorizontaal tebranishlarini hisoblash natijalari



9-rasm. To'rt g'ildirakli traktorni pastlikga tushishdagi gorizontaal tebranishlarini tezliklari grafiklari



10-rasm. To'rt g'ildirakli traktorni pastlikga tushishdagi gorizontaal tebranishlarini tezlanishlari grafiklari



11-rasm. To‘rt g‘ildirakli pastlikga tushishdagi gorizontaal tebranishlarini kuchlari va qarshilik kuchlari grafiklari

Tashqi kuchlar ta‘siridagi to‘rt g‘ildirakli traktorning funksional-konstruktiv parametrlarini aniqlash uchun pastlikga tushishdagi gorizontaal harakati tavsiflarini tadqiq qilish imkonini beruvchi dinamik jarayonlarini hisoblash eksperimentlarinig dasturiy vositalari ishlab chiqildi.

**Xulosa.** Tashqi kuchlar ta‘siridagi to‘rt g‘ildirakli traktorning pastlikga tushishdagi gorizontaal tebranma harakatini optimal boshqarish algoritmi ishlab chiqildi.

1. Olingan harakat tenglamalari asosida to‘rt g‘ildirakli traktorni pastlikga tushishdagi gorizontaal tebranma harakatlarini optimal boshqarishning algoritmi va Pontryaginining chegaraviy masalasi shakllantirildi.

2. To‘rt g‘ildirakli traktorning  $\theta=7^{\circ}$  qiyalikdagi pastlikga tushishdagi gorizontaal tebranma harakatlarini optimal boshqarishning algoritmi hisoblash eksperimentlarini o‘tkazish imkoniyatini berdi.

3. Olingan harakat tenglamalari asosida to‘rt g‘ildirakli traktorning  $\theta=7^{\circ}$  burchakli qiyalik bo‘ylab pastlikga tushishdagi gorizontaal harakatini hisoblash eksperimentlarining natijalari tortish kuchi gorizontall harakat bo‘yicha  $mm=7710,632 \div 12730$  N oraliqdagi sarfini ko‘rsatdi.

4. To‘rt g‘ildirakli traktorning  $\theta=7^{\circ}$  burchakli qiyalik bo‘ylab pastlikga tushishdagi gorizontaal harakatini hisoblash eksperimentlarinig natijalari yuqoriga ko‘tarilishidagi inersiya kuchlari yo‘nalish tomongai bo‘lganligi sababli tortish kuchi ko‘proq sarf bo‘lishini ko‘rsatdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azimov B.M., Ravutov Sh.T., Saidov S.A., Mirxaitov U.T. TTZ traktorlarining yuritish qismini sinash stendining imitatsiya tizimini loyihalash masalasini qo‘yilishi va yechish usullari // Informatika va energetika muammolari O‘zbekiston jurnali, 2017. №2. 27 – 33 bet.
2. Azimov B.M., Sulyukova L.F., Akhmedov Sh.A., Azimov M.B. Mathematical Modeling of Tractor Movement on the Slope // International Journal of Mechanical and Production Engineering Research and Development (IJMPERD). Vol. 10. Issue

3. Jun 2020. P. 4953–4962. Scopus, CiteScore 2019=0.7. DOI: 10.24247/ijmperdjun2020469. <http://www.tjprc.org/publishpapers/> 2-67-1595841159-469IJMPERDJUN2020469.
3. Azimov B.M., Sulyukova L. F., Azimov M.B. Modeling and Research of the Controllability of Wheeled Tractors// International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE). Vol. 9 Issue-1, November 2019. P.2344 – 2351. Scopus, CiteScore 2019=0.6. <https://www.ijitee.org/wp-content/uploads/papers/v9i1/A5246119119>.
4. Azimov B.M., Ro‘ziqulov A.R., Yakubjanova D.K., Ixsanova Sh.Z., Norqulov J.Sh. Mashinatraktorli agregatlarni raqamli loyihalash uchun egri chiziqli, qiyaliklardagi, balandlikka ko‘tarilishi va pastlikka tushishidagi harakatining optimal parametrlarini hisoblash dasturlari majmuasi. O‘zR Adliya vazirligi. EHM uchun dasturni ro‘yxatdan o‘tkazish haqida qaror. № DGU 42305 raqamli guvohnoma. Berilgan sanasi. 11.09.2024 y.
5. Azimov M.B. G‘ildirakli traktorlarni sinash tizimini tadqiq qilish jarayonlarini IDEFO uslubiyati asosida grafikaviy modellashtirish // Informatika va energetika muammolari O‘zbekiston jurnali. 2023. №3. 29 – 35 bet.
6. Ахметов А.А., Усманов И.И., Рузиев Д.А., Ахмедов Ш.А. Высококлиренсный, высокоманевренный универсально-пропашной трактор // Горный вестник. 2014. №3. С. 109 – 112.
7. Ахметов А.А. Универсально-пропашные тракторы для междурядной обработки посевов хлопчатника. Ташкент: Фан, 2017.
8. Бабашев К.А., Азимов М.Б. Математическое моделирование и управление процессами испытания колесных машин// Материалы XVIII Международной научно-методической конференции «Информатика: проблемы, методология, технологии». Воронеж: Издательство «Научно-исследовательские публикации», ООО «Вэлборн». 2018. Т. 5. С. 108 – 113.
9. Гуськов В.В. и др. Тракторы: Теория. М.: Машиностроение, 1988. С.33 – 35.
10. Дубинин Е.А., Полянский А.С. Математическое моделирование движения шарнирно-сочлененного колесного средства транспорта по неровностям// Науковий вісник ТДАТУ. Вип. 5, 2015. Т.1.С.53–66. <http://nauka.tsatu.edu.ua/e-journals-tdatu/pdf5t1/9.pdf>.
11. Жилейкин М.М., Ягубова Е.В., Чижов Д.А. Экспериментальное исследование эффективности стабилизации движения трактора при работе на склоне в режиме вспашки на масштабных моделях // Известия высших учебных заведений. МАШИНОСТРОЕНИЕ. 2015. №4 [661]. С.57 – 66.
12. Loghin Fl., Ene T.A., Mocanu V., Capatîna I. Dynamic modeling of technical system tractor - seed drill // Bulletin of the Transilvania University of Brasov Series II: Forestry Wood Industry • Agricultural Food Engineering • Vol. 5 (54). 2012. No. 1. P.155–160.
13. Norkulov J.Sh., Ihsanova Sh.Z. Investigation of the function of a four-wheeled tractor on a slope //Of Turin polytechnic university in Tashkent «Acta». Tashkent. July 2020. P. 1 – 10.
14. Onorboev B.O., Sulyukova L.F., Azimov M.B. Modeling and research of the controllability of wheeled tractors // Сборник докладов республиканской научно-технической конференции «Современное состояние и перспективы применения цифровых технологий и искусственного интеллекта в управлении. Ташкент, 6 – 7 сентября 2021г. С.172 – 181.
15. Поддубный В.И., Поддубная М.Л. Математическое моделирование управляемого движения колесной машины по задаваемой траектории//

- Ползуновский вестник. 2014. №4. Т.1. [http://elib.altstu.ru/elib/books/Files/pv2014\\_04\\_1/pdf/040poddubniy.pdf](http://elib.altstu.ru/elib/books/Files/pv2014_04_1/pdf/040poddubniy.pdf).
16. Рузикулов А.Р., Азимов М.Б., Абдуллаев Ж.Э., Идрисов Р. Программный комплекс расчета оптимальных параметров горизонтальных и вертикальных колебаний четырехколесного универсально-пропашного трактора при различных условиях движения // Узбекский журнал «Проблемы информатики и энергетики». Ташкент, 2020. №4.
  17. Смирнов Г.А. Теория движения колесных машин. М.: Машиностроение, 1990. С.173 – 278.
  18. Тарасова С.В. Методика и исследование результатов взаимодействия протектора с наклонной опорной поверхностью в режиме варьирования углами увода пневматических шин // Известия ОГАУ. 2015. №2. С.84 – 87.
  19. Афанасьев В.Н. Теория оптимального управления непрерывными динамическими системами. М.: Изд-во физического факультета МГУ. 2011. – 170 с.
  20. Васильев Ф. П. Численные методы решения экстремальных задач. М.: Наука, 1988. С. 421 – 485.

Ўзбекистон Республикаси Raqamli texnologiyalar vazirligi  
huzuridagi Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni  
rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti

07.07.2025-у.  
qabul qilingan

UDK 004.93'1

**O.R. YUSUPOV**

## **STATIK YO'NALTIRISHGA ASOSLANGAN PANSHARPENING ALGORITMIK KOMPOZITSIYASINING PARAMETRLARINI KO'P MEZONLI OPTIMALLASHTIRISH ASOSIDA SOZLASH**

Ushbu maqolada pansharpening algoritmik kompozitsiyasi parametrlarini statik yo'naltirish asosida ko'p mezonli optimallashtirish orqali sozlash yondashuvi taklif etilgan. Modelda klassik pansharpening usullari (IHS, PCA, Brovey, GS, GSA, BDS) ekspertlar kompozitsiyasi (MoE) shaklida birlashtirildi. Statik yo'naltirish mexanizmi PAN va MS tasvirlarning gradiyent, dispersiya va entropiya kabi statistik belgilariga asoslanib, ekspert vaznlarini oldindan aniqlaydi. Parametrlar NSGA-II evolyutsion algoritmi yordamida PSNR, SSIM, ERGAS va SAM mezonlari bo'yicha optimallashtirildi. Yakuniy optimal yechim TOPSIS, VIKOR va AHP kabi MCDM usullari yordamida tanlandi. PairMax Dataset asosida o'tkazilgan tajribalar modelning fazoviy tafsilotlarni tiklash va spektral yaxlitlikni saqlashda samaradorligini tasdiqladi.

**Kalit so'zlar:** pansharpening, algoritmik kompozitsiya, statik yo'naltirish, NSGA-II, ko'p mezonli optimallashtirish, MCDM.

**O.P. Юсупов**

### **Настройка параметров алгоритмической композиции паншарпенинга, базирующейся на статической маршрутизации, на основе многокритериальной оптимизации**

В статье предложен подход к настройке параметров алгоритмической композиции паншарпенинга на основе статической маршрутизации и многокритериальной оптимизации. Классические методы (IHS, PCA, Brovey, GS, GSA, BDS) объединены в композицию экспертов

(MoE). Весовые коэффициенты экспертов определяются по статическим признакам изображений PAN и MS (градиент, дисперсия, энтропия). Оптимизация параметров выполнялась с использованием эволюционного алгоритма NSGA-II по критериям PSNR, SSIM, ERGAS и SAM. Для выбора единственного оптимального решения применены методы MCDM (TOPSIS, VIKOR, AHP). Эксперименты на наборе PairMax Dataset показали высокую эффективность модели в восстановлении пространственных деталей и сохранении спектральной согласованности.

**Ключевые слова:** паншарпенинг, алгоритмическая композиция, статическая маршрутизация, NSGA-II, многокритериальная оптимизация, MCDM.

**O.R. Yusupov**

### **Tuning the parameters of a pansharpening algorithmic composition based on static routing using multi-objective optimization**

This paper proposes an approach to tuning the parameters of a pansharpening algorithmic composition based on static routing and multi-objective optimization. Classical methods (IHS, PCA, Brovey, GS, GSA, BDSD) are combined into a Mixture of Experts (MoE) framework. The expert weights are determined from statistical features of PAN and MS images, such as gradient, variance, and entropy. Parameter optimization is performed using the NSGA-II evolutionary algorithm considering PSNR, SSIM, ERGAS, and SAM criteria. To select the final optimal solution, MCDM methods (TOPSIS, VIKOR, AHP) are applied. Experiments on the PairMax Dataset demonstrate the proposed model's effectiveness in preserving spectral fidelity while enhancing spatial details.

**Keywords:** pansharpening, algorithmic composition, static routing, NSGA-II, multi-objective optimization, MCDM.

**KIRISH.** Masofaviy zondlash texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida yer yuzasining yuqori fazoviy va spektral aniqlikdagi tasvirlarini olish imkoniyati kengaymoqda. Bunda, PAN (panxromatik) tasvirlar yuqori fazoviy, MS (multispektral) tasvirlar esa yuqori spektral aniqlikka ega bo'lib, ularni uyg'unlashtirish orqali fazoviy va spektral jihatdan mazmunli tasvirlarni hosil qilish imkonini beruvchi pansharpening texnologiyasi asosiy rol o'ynaydi [1,2].

Pansharpening algoritmlari orasida klassik yondashuvlar (IHS, PCA, Brovey, GS, GSA va b.) soddaligi hamda tezkorligi bilan ajralib turadi. Biroq, ularning har biri ma'lum cheklolarga ega: ayrimlari fazoviy obyektini yaxshi tiklasa-da, spektral xususiyatlarni buzadi va aksincha [1-3]. Shu bois, bu usullarni o'zaro uyg'unlashtirish masalasi dolzarb hisoblanadi [4].

So'nggi yillarda ekspertlar aralashmasiga asoslangan (Mixture of Experts – MoE) algoritmik kompozitsiyasi bu muammoni yechishda istiqbolli yondashuv sifatida qarash mumkin. Har bir klassik pansharpening algoritmi mustaqil ekspert sifatida ko'riladi va yakuniy tasvir ularning kombinatsiyasi orqali shakllantiriladi. MoE algoritmik kompozitsiyasining muvaffaqiyatli ishlashi uchun har bir piksel yoki lokal soha uchun mos ekspertlarga qanday vazn qiymat berilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun shlyuz komponenti har bir piksel uchun fazoviy va spektral xususiyatlarga asoslangan yo'naltirishni amalga oshiradi [5].

Ushbu maqolada biz statik yo'naltirishga asoslangan MoE algoritmik kompozitsiyasini ko'rib chiqamiz. Shlyuz PAN va MS tasvirlardan olinadigan oddiy statistik xususiyatlar (gradiyent, o'rtacha qiymat, standart og'ish) asosida SoftMax vaznlarini hisoblaydi. Bu vaznlar har bir ekspert natijalarining hissasini aniqlab beradi. Biroq, yo'naltirish vektorlari tasodifiy tanlanganda optimal natijalar bermaydi.

Shu sababli, yo'naltirish vektorlarini optimal tanlash masalasi ko'p mezonli optimallashtirish masalasiga keltiriladi. Taklif etilayotgan yondashuvda yo'qotish funksiyasi sifatida PSNR, SSIM, SAM, va ERGAS metrikalari tanlanadi [3, 6, 7]. Har bir metrika ma'lum jihatlarni baholaydi: PSNR va SSIM – umumiy sifat, SAM – spektral burchak, ERGAS – global nisbiy xato. Ular birgalikda tasvir sifatini har tomonlama baholash imkonini beradi.

Yo‘naltirish vektorlari ushbu metrikalarni minimallashtiruvchi shaklda NSGA-II algoritmi yordamida optimallashtiriladi. Bu esa pansharpening algoritmik kompozitsiyasini har bir piksel uchun optimal ekspertlar birikmasini aniqlashni amalga oshiradi.

**Masalaning qo‘yilishi.** Masofadan zondlash texnologiyalari yordamida olingan multispektral (MS) va panxromatik (PAN) tasvirlar fazoviy va spektral jihatdan farqlanadi. Yuqori fazoviy aniqlik PAN tasvirlarda, yuqori spektral aniqlik esa MS tasvirlarda mavjud bo‘lib, har ikkala xususiyatni birlashtirgan yuqori sifatli tasvirlarni olish muhim amaliy va ilmiy masaladir. Masalani matematik qo‘yilishi  $\mathcal{F}: \mathbb{R}^{H \times W} \times \mathbb{R}^{\lfloor \frac{H}{k} \rfloor \times \lfloor \frac{W}{k} \rfloor \times C} \rightarrow \mathbb{R}^{H \times W \times C}$  quyidagicha ifodalanadi,

$$\mathcal{F} = \mathcal{P}(\mathcal{J}_{pan}, \mathcal{J}_{MS}),$$

bu yerda  $\mathcal{J}_{pan} \in \mathbb{R}^{H \times W}$  – panxromatik tasvir,  $\mathcal{J}_{MS} \in \mathbb{R}^{\lfloor \frac{H}{k} \rfloor \times \lfloor \frac{W}{k} \rfloor \times C}$  – multispektral tasvirlar,  $H, W$  – tasvirlar o‘lchamlari,  $C$  – kanallar soni,  $k$  – panxromatik va multispektral tasvir o‘lchamlarini nisbati.

Masala  $\mathcal{P}$  funksiyani amalga oshiruvchi usul yoki algoritmni ishlab chiqish bo‘lib, uni shunday qurish kerakki, natijaviy multispektral tasvirlarda spektral va fazoviy buzilishlar minimal bo‘lishini ta’minlashishi lozim.

**Masalani yechish usuli.** Taklif etilayotgan usulning asosiy g‘oyasi – PAN tasvirdan yuqori fazoviy tafsilotlarni, MS tasvirdan esa spektral rang xususiyatlarini ajratib olish va ularni ekspertlar aralashmasi (MoE) algoritmik kompozitsiyasi [7] orqali birlashtirishdan iborat. MoE algoritmik kompozitsiyasi doirasida har bir ekspert klassik (o‘qitishga asoslanmagan) pansharpening usulini ifodalaydi (masalan, IHS, Brovey, PCA, GSA va h.k.), va shlyuzlar PAN va MS tasvirdan olingan xususiyatlar asosida har bir piksel (yoki lokal soha) uchun mos ekspertlarga vazn qiymatlarini taqsimlaydi.

**MoE** pansharpening algoritmik kompozitsiyasini quyidagi shaklda ifodalaymiz,

$$\mathcal{F}^c(x, y) = \mathcal{C} \left( \sum_{t=1}^T g_t(x, y) \mathcal{E}_t \left( \mathcal{J}_{pan}(x, y), \check{\mathcal{J}}_{MS}^c(x, y) \right) \right), c = 1..C,$$

bu yerda  $\mathcal{C}(\cdot)$  – natijalarni korreksiyalash funksiyasi,  $T$  – ekspertlar soni,  $g_t(x, y)$  – kompetentlik funksiyasi (shlyuz),  $\mathcal{E}_t$  –  $t$ -ekspert (pansharpening algoritmi),  $\check{\mathcal{J}}_{MS}^c$  – interpolyatsiya usullari asosida PAN kanal o‘lchamiga keltirilgan  $c$ -MS kanal tasviri, ya’ni  $\check{\mathcal{J}}_{MS} = (\check{\mathcal{J}}_{MS}^1, \check{\mathcal{J}}_{MS}^2, \dots, \check{\mathcal{J}}_{MS}^c) \in \mathbb{R}^{H \times W \times C}$ . Agar  $g_t(x, y)$  qiymati qanchalik katta bo‘lsa,  $\mathcal{J}_{pan}(x, y)$  va  $\check{\mathcal{J}}_{MS}(x, y)$  piksellarni birlashtirish algoritmi  $\mathcal{E}_t$  ning natijasida aniqlangan  $(x, y)$  piksel qiymati shunchalik katta ta’sir bilan hisobga olinadi. To‘plam

$$\Omega_t = \{(x, y) | x \in \{1, 2, \dots, H\}, y \in \{1, 2, \dots, W\}: g_t > g_s, s = 1, \dots, T, s \neq t\}$$

asos algoritm  $\mathcal{E}_t$  ning kompetentlik sohasi deb ataladi [5].

Ekspert sifatida shakllantiriladigan  $\mathcal{F}_t: \mathbb{R}^{H \times W} \times \mathbb{R}^{H \times W \times C} \rightarrow \mathbb{R}^{H \times W \times C}$  algoritm mustaqil klassik pansharpening algoritmi asosida amalga oshiriladi,

$$\mathcal{F}_t = \mathcal{E}_t(\mathcal{J}_{pan}, \check{\mathcal{J}}_{MS}), t = 1, 2, \dots, T.$$

bu yerda  $\mathcal{F}_t$  –  $t$ -ekspert tomonidan hosil qilingan tasvir.

Shlyuz natijaviy piksel intensivlik qiymatida ekspert algoritmlar tomonidan hisoblangan har bir piksel intensivligining ta’sirini aniqlashda vazn qiymatlarini hisoblashni amalga oshiradi. Har bir  $(x, y)$  piksel uchun tabiiy bo‘lgan normallashtirish sharti quyidagicha bo‘ladi,

$$\mathfrak{S}(x, y) = [g_1(x, y), g_2(x, y), \dots, g_t(x, y)] \in \mathbb{R}^T,$$

$$\sum_{t=1}^T g_t(x, y) = 1, \quad g_t(x, y) \geq 0, \quad \forall x \in \{1, 2, \dots, H\}, \forall y \in \{1, 2, \dots, W\}.$$

Biz [5] maqolamiz asosida statik yoʻnaltirishdan foydalandik. Unda PAN tasvir va uning gradiyenti, multispektral kanallar tasvirlari oʻrtachasi va kvadratik chetlanishdan foydalanildi. PAN tasvir va uning gradiyenti fazoviy belgilarni, multispektral kanallar tasvirlari oʻrtachasi va dispersiyasi esa spektral belgilarni yaxshi ifodalaydi. PAN tasvir gradiyentini hisoblash Sobel operatori asosida amalga oshiriladi.

Ushbu usulni amalga oshirishda quyidagi pansharpening algoritmi asosida amalga oshirildi. Algoritm asosiy asoslari [5] maqolamizda berilgan.

**Berilgan maʼlumotlar:**  $J_{pan}$  – PAN tasviri;  $J_{MS}$  – multispektral tasvirlar;  $T$  ta  $\mathcal{E}_t$  klassik pansharpening algoritmlari.

**Chiquvchi maʼlumotlar:**  $\mathcal{F}$  – yuqori fazoviy ruxsatli va oʻlchamli multispektral tasvirlar.

**1-qadam.** Interpolyatsiya usuli asosida berilgan barcha  $J_{MS}$  multispektral tasvirlar oʻlchami  $K$  marta kattalashtiriladi:

$$\tilde{J}_{MS} = UpSampled(Interpolatsiya, J_{MS}, K).$$

**2-qadam.**  $\tilde{J}_{MS}$  multispektral tasvirlarning har bir kanal boʻyicha intensivlik qiymati Min-Max usuli asosida normallashtiriladi,

$$\hat{j}_{MS}^c(x, y) = \frac{\check{j}_{MS}^c(x, y) - \check{j}_{min}^c}{\check{j}_{max}^c - \check{j}_{min}^c + \zeta}, \quad c = 1..C,$$

bu yerda  $\zeta$ -maxrajni 0 qiymatga olib kelmaslikni taʼminlovchi kichik qiymat,  $\check{j}_{min}^c = \min_{t \in \{1,2,\dots,H\}, s \in \{1,2,\dots,W\}} \check{j}_{MS}^c(t, s)$ ,  $\check{j}_{max}^c = \max_{t \in \{1,2,\dots,H\}, s \in \{1,2,\dots,W\}} \check{j}_{MS}^c(t, s)$ .

**3-qadam.**  $J_{pan}$  PAN tasvirining intensivlik qiymati Min-Max usuli asosida normallashtiriladi,

$$\hat{j}_{pan}(x, y) = \frac{J_{pan}(x, y) - J_{min}^p}{J_{max}^p - J_{min}^p + \bar{\zeta}},$$

bu yerda  $\bar{\zeta}$  – maxrajni 0 qiymatga olib kelmaslikni taʼminlovchi kichik qiymat,  $J_{min}^p = \min_{t \in \{1,2,\dots,H\}, s \in \{1,2,\dots,W\}} J_{pan}(t, s)$ ,  $J_{max}^p = \max_{t \in \{1,2,\dots,H\}, s \in \{1,2,\dots,W\}} J_{pan}(t, s)$ .

**4-qadam.** Berilgan har bir ekspert asosida  $\mathcal{F}_t$  yuqori oʻlchamli multispektral tasvirlarni hosil qilish amalga oshiriladi,

$$\mathcal{F}_t = \mathcal{E}_t(J_{pan}, \hat{j}_{MS}), t = 1, 2, \dots, T.$$

**5-qadam.** Shlyuzni yoʻnaltirish uchun fazoviy belgilarni ifodalaydigan Sobel operator gradiyentini hisoblash amalga oshiriladi:

$$\nabla J_{pan} = Sobel(\hat{j}_{pan}).$$

**6-qadam.** Shlyuzni yoʻnaltirish uchun spektral belgilarni ifodalaydigan multispektral tasvirlarning har bir pikselining intensivlik qiymatlari boʻyicha oʻrtacha, kvadratik chetlanishlarni hisoblashlar amalga oshiriladi:

$$\mu_{MS}(x, y) = \frac{1}{C} \sum_{c=1}^C \hat{j}_{MS}^c(x, y);$$

$$\sigma_{MS}(x, y) = \sqrt{\frac{1}{C} \sum_{c=1}^C (\hat{j}_{MS}^c(x, y) - \mu_{MS}(x, y))^2}.$$

**7-qadam.** SoftMax yumshoq hisoblash funksiyasi asosida har bir ekspert vazn qiymatlarini hisoblash amalga oshiriladi:

$$g_t(x, y) = \frac{e^{\langle \tilde{g}(x, y), \beta_t \rangle}}{\sum_{k=1}^T e^{\langle \tilde{g}(x, y), \beta_k \rangle}}, \quad t = 1, 2, \dots, T,$$

bu yerda  $\tilde{g}(x, y) = [\hat{J}_{pan}(x, y), \nabla J_{pan}(x, y), \mu_{MS}(x, y), \sigma_{MS}(x, y)]$ ,  $\beta_t$  –  $t$ -ekspertning shlyuz parametr vektori.

**8-qadam.** Ekspertlar natijalarini birlashtirish asosida yakuniy multispektral kanal tasvirlari hosil qilinadi:

$$\mathcal{F}^c(x, y) = \mathcal{C} \left( \sum_{t=1}^T g_t(x, y) \mathcal{F}_t^c(x, y) \right), c = 1..C,$$

bu yerda  $\mathcal{F}_t = (\mathcal{F}_t^1(x, y), \mathcal{F}_t^2(x, y), \dots, \mathcal{F}_t^c(x, y))$ .

**9-qadam.** Algoritm yakunlanadi.

Algoritm dagi  $UpSampled(Interpolatsiya, J_{MS}, k)$ ,  $Sobel(\hat{J}_{pan})$  va  $\mathcal{E}_t(J_{pan}, \hat{J}_{MS})$  lar tegishli hisoblashlarni amalga oshiruvchi protseduralar hisoblanadi.

Mazkur pansharpening algoritmini hisoblashni amalga oshirish uchun parametrlash bosqichini amalga oshirish lozim. 7-qadam hisoblash jarayonida har bir ekspertning shlyuz parametr vektori  $\beta_i = (\beta_{i_1}, \beta_{i_2}, \dots, \beta_{i_r})$  dan foydalaniladi. Ushbu parametrlar to‘plami asosida taklif etilgan pansharpening algoritmnining parametrlar fazosi  $\pi^\ell$  ni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\pi^\ell = (\{\beta_1\}, \{\beta_2\}, \dots, \{\beta_T\}).$$

Parametrlash bosqichini amalga oshirish, ya’ni pansharpening algoritmlar oilasi bilan sonli parametrlar to‘plami o‘rtasidagi birma-bir moslikni o‘rnatish, mazkur algoritmlar oilasi doirasida optimallashtirish masalasini qo‘yish va parametrlar fazosida optimallashtirish jarayonlarini amalga oshirishning mumkin bo‘lgan yo‘llarini belgilash imkonini beradi.

Optimallashtirish parametrlar to‘plamining qaysi biri orqali algoritmlar oilasi aniqlanishiga bog‘liq bo‘lgan  $\varrho$  o‘lchovli fazoda yoki uning sohasida amalga oshiriladi. Shu ma’noda, pansharpening aniq algoritmini qurish masalasi ko‘rib chiqilayotgan algoritmlar oilasi doirasida optimallashtirish masalasiga keltiriladi. Umumiy holda optimallashtirish masalasini quyidagicha ifodalash mumkin,

$$\pi^{\ell*} = \arg \inf_{\pi^\ell \in \pi} Q(\mathcal{A}(\pi^\ell, \bar{\mathcal{S}}^l)), \quad (1)$$

bu yerda  $\bar{\mathcal{S}}^l$  – ruxsat etilgan  $l$  ta obyektlar.

Optimallashtirish ikkita holatdagi masalasi yechishni talab etadi: etalonli va etalonsiz. Biz qarayotgan masalada etalon mavjud bo‘lgan holat olingan. Masalada parametrlar shunday aniqlanishi kerakki, ular yordamida hosil qilingan tasvirlar bilan etalon tasvirlar o‘rtasidagi farqni ifodalovchi funksiya minimumga ega bo‘lsin. Bunda yechim sifatida, odatda, farqlilikni minimallashtirish sifatini baholovchi funksiyalardan foydalaniladi.

Masalaning asosiy murakkabligi shundaki, tasvir aniqligini oshirish sifatini baholash o‘zi alohida masala bo‘lib, u uchun umumqabul qilingan yagona sifat mezonini mavjud emas. Boshqa bir muammo esa – baholash funksiyasini o‘zi aniqligi oshiriladigan usulga to‘g‘ridan to‘g‘ri integratsiya qilish qiyin, ya’ni usul parametrlarini bevosita sozlash emas, balki natija va etalon tasvir o‘rtasidagi taqqoslash orqali bilvosita amalga oshiriladi.

Yana bir muammo sun’iy yo‘ldosh tasvirlarining olinishi bilan bog‘liq. Bu holatda, yaxshilanishi lozim bo‘lgan multispektral tasvir sun’iy ravishda yaratiladi. Sababi – kosmik apparat bortidagi sensorlar Yer yuzasidan qaytgan nurni turli qabul qiluvchilarga yozib oladi. Natijada bir xil sahna turli spektral to‘lqin uzunliklarida tasvirlanadi. Odatda, ularning biri – butun ko‘rinadigan spektrni qamrab oluvchi va yuqori fazoviy aniqlikka ega bo‘lgan panxromatik kanal bo‘ladi. Multispektral tasvir esa, aksincha, pastroq fazoviy aniqlikda, har biri tor spektral diapazonlarda yozib olingan bir nechta kanallarni o‘z ichiga oladi.

Aslida bitta fazoviy aniqlikdagi multispektral tasvir mavjud bo'lgani sababli, sifatni baholash yoki algoritmi sozlash uchun sun'iy ravishda etalon tasvir yoki past aniqlikdagi boshlang'ich multispektral tasvirlarni yaratishni taqozo etadi.

(1) masalani ko'p mezonli optimallashtirish masalasini quyidagicha shakllantiramiz. Hosil qilinadigan multispektral tasvirning sifatini baholash metrikalari sifatida quyidagilar olinadi:

**PSNR.** Tasvirning aniqlik darajasini (ya'ni, shovqinsizligi) baholaydi. U etalon (asl) tasvir bilan tiklangan (fused) tasvir orasidagi o'rtacha kvadratik xatolik (MSE) asosida hisoblanadi. PSNR qiymati qanchalik yuqori bo'lsa, tasvir sifati shunchalik yaxshi. Odatda 30 dB dan yuqori PSNR yaxshi sifat deb hisoblanadi;

**SSIM.** SSIM tasvirlar orasidagi struktura, kontrast va yorqinlik o'xshashligini hisobga olgan holda ularning o'xshashligini baholaydi. SSIM qiymati 0 dan 1 gacha bo'ladi. 1 ga yaqin bo'lsa, tasvirlar juda o'xshash hisoblanadi;

**SAM.** SAM ikki tasvirning spektral vektorlari orasidagi burchak farqini o'lchaydi. SAM qiymati burchak (gradus yoki radian) bilan o'lchanadi. Qiymat qanchalik kichik bo'lsa, spektral o'xshashlik shunchalik yuqori;

**ERGAS.** ERGAS – tasvirlar orasidagi umumiy nisbiy xatolikni foiz shaklida baholovchi metrikadir. U barcha spektral kanallardagi MSE va ularning o'rtacha qiymatlari asosida hisoblanadi. ERGAS qiymati qanchalik kichik bo'lsa, natijaviy tasvir shunchalik sifatli hisoblanadi. Ko'pgina holatlarda 3–5 oralig'idagi qiymat yaxshi natija deb qaraladi.

Ushbu baholash metrikalari asosida mezonlarni quyidagicha yozamiz,

$$\begin{aligned}\Phi_1(\pi^\ell) &= \frac{1}{l} \sum_{i=1}^l PSNR(\bar{\mathcal{S}}_i, \mathcal{A}(J_{pan}, \check{J}_{MS}, \pi^\ell)) \rightarrow \max, \\ \Phi_2(\pi^\ell) &= \frac{1}{l} \sum_{i=1}^l SSIM(\bar{\mathcal{S}}_i, \mathcal{A}(J_{pan}, \check{J}_{MS}, \pi^\ell)) \rightarrow \max, \\ \Phi_3(\pi^\ell) &= \frac{1}{l} \sum_{i=1}^l SAM(\bar{\mathcal{S}}_i, \mathcal{A}(J_{pan}, \check{J}_{MS}, \pi^\ell)) \rightarrow \min, \\ \Phi_4(\pi^\ell) &= \frac{1}{l} \sum_{i=1}^l ERGAS(\bar{\mathcal{S}}_i, \mathcal{A}(J_{pan}, \check{J}_{MS}, \pi^\ell)) \rightarrow \min.\end{aligned}$$

Mezonlarning ikkitasi maksimallashtirish, 2 tasi minimallashtirishni talab etadi. Ko'p mezonli optimallashtirishda esa, mezonlar odatda, bir yo'nalishdagi mezonlarda bo'lishni talab etadi. Biz optimallashtirish masalasini yechish uchun minimallashtirish yo'nalishini tanladik va  $\Phi_1, \Phi_2$  mezonlarni qayta quyidagicha ifodalaymiz:

$$\begin{aligned}\Phi_1(\pi^\ell) &= -\frac{1}{l} \sum_{i=1}^l PSNR(\bar{\mathcal{S}}_i, \mathcal{A}(J_{pan}, \check{J}_{MS}, \pi^\ell)) \rightarrow \min, \\ \Phi_2(\pi^\ell) &= -\frac{1}{l} \sum_{i=1}^l SSIM(\bar{\mathcal{S}}_i, \mathcal{A}(J_{pan}, \check{J}_{MS}, \pi^\ell)) \rightarrow \min.\end{aligned}$$

Optimallik mezonlarini vektor-funksiyasi quyidagicha ifodalanadi,

$$\Phi(\pi^\ell) = [\Phi_1(\pi^\ell), \Phi_2(\pi^\ell), \Phi_3(\pi^\ell), \Phi_4(\pi^\ell)], \quad (2)$$

bu yerda  $\Phi(\pi^\ell)$  qiymatlari  $\{\Phi\} = \mathbb{R}^{|\Phi|}$  maqsadli fazoda aniqlangan vektor-funksiya bo'lib, uning aniqlanish sohasi  $\pi^\ell \in \pi$  da berilgan.

$\pi$  sohada optimallik mezonlarini minimallashtirish masalasini, ya'ni ko'p mezonli optimallashtirishni quyidagicha ifodalaymiz,

$$\min_{\pi^{\varrho} \in \pi} \Phi(\pi^{\varrho}) = \Phi(\pi^{\varrho^*}) = \Phi^*. \quad (3)$$

Ko'p mezonli optimallashtirish masalasi  $\pi^{\varrho}$  parametrlarni aniqlashdan iborat bo'lib, bu (2) formuladagi optimallik mezonlarining ekstremum qiymatlariga erishish maqsadida (3) formula asosida amalga oshiriladi.

Ko'p mezonli optimallashtirish masalalarida bir vaqtning o'zida bir nechta qarama-qarshi mezonlarni (masalan, fazoviy va spektral sifatni) hisobga olish zarurati yuzaga keladi. Bunday masalalarni yechishda klassik optimallashtirish usullari, odatda, yagona yechim topishga qaratilgan bo'lib, mezonlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlay olmaydi. Shu bois ko'p mezonli optimallashtirish usullari, xususan, NSGA-II (Non-dominated Sorting Genetic Algorithm II) algoritmi, pansharpening algoritmining parametrlarini sozlash uchun samarali yechimlar taqdim etadi [8].

NSGA-II algoritmining asosiy g'oyasi – Pareto optimal yechimlar majmuasini topishdir. Bunday yechimlar to'plamida har bir yechim boshqa bir yechimdan barcha mezonlar bo'yicha ustun bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, bunday yechimlar muqobil hisoblanib, biror mezonda yutuq bo'lishi uchun boshqa mezonda yo'qotishga to'g'ri keladi. NSGA-II evolyutsion algoritmi bo'lib, genetik algoritmlar prinsipi asosida ishlaydi va har bir avlodda dominant bo'lmagan (ya'ni, Pareto optimal) yechimlarni tanlab, ularni crossover va mutatsiya yordamida yangilab boradi.

Pansharpening usulidagi  $\pi^{\varrho^*}$  parametrlarni aniqlash uchun ko'p mezonli optimallashtirish masalasini yechishga evolyutsion algoritmlar oilasiga kiruvchi Pareto-approksimatsiyaga asoslangan NSGA-II algoritmi [8] qo'llanildi.

NSGA-II evolyutsion algoritmi asosida pansharpening algoritmik kompozitsiyasining parametrlarini sozlash algoritmi quyidagi bosqichlardan iborat.

**1-bosqich.** *Boshlang'ich populyatsiyani yaratish.* Tasodifiy qiymat berish orqali  $\mathcal{N}$  ta yo'naltirish vektorlardan iborat boshlang'ich populyatsiya yaratiladi:

$$\mathfrak{P}_0 = \{\pi_1^{\varrho}, \pi_2^{\varrho}, \dots, \pi_{\mathcal{N}}^{\varrho}\},$$

bu yerda  $\pi_i^{\varrho} = (\{\beta_{i_1}\}, \{\beta_{i_2}\}, \dots, \{\beta_{i_T}\})$ ,  $\beta_{i_j} \in \mathbb{R}^4$ ,  $\beta_{i_j}^k \sim \mathcal{U}(-a, a)$ ,  $i \in \{1, 2, \dots, \mathcal{N}\}$ ,  $k \in \{1, 2, 3, 4\}$ ,  $\mathcal{N}$  – populyatsiya hajmi.

**2-bosqich.** *Statik MoE pansharpening algoritmining hisoblashlarini amalga oshirish.* Har bir individ asosida algoritmi hisoblash amalga oshirilib, ruxsat etilgan  $l$  ta obyektlar uchun multispektral tasvirlar hosil qilinadi.

**3-bosqich.** *Fitnes funksiyalarini hisoblash.* Har bir individ uchun

$$\Phi(\pi_i^{\varrho}) = [\Phi_1(\pi_i^{\varrho}), \Phi_2(\pi_i^{\varrho}), \Phi_3(\pi_i^{\varrho}), \Phi_4(\pi_i^{\varrho})], i \in \{1, 2, \dots, \mathcal{N}\},$$

maqsad funksiyalarini hisoblash amalga oshiriladi.

**4-bosqich.** *Pareto dominant bo'lmagan tartiblashni (Pareto-non-dominated sorting) amalga oshirish.* Har bir individ  $\pi_i^{\varrho}$  uchun boshqa individlarga nisbatan dominantlik quyidagicha aniqlanadi:

$$\pi_a^{\varrho} < \pi_b^{\varrho} \Leftrightarrow \forall i, \Phi_i(\pi_a^{\varrho}) \leq \Phi_i(\pi_b^{\varrho}), \exists j, \Phi_j(\pi_a^{\varrho}) < \Phi_j(\pi_b^{\varrho}).$$

Bu qoidaga ko'ra  $\pi_a^{\varrho}$  parametrlar asosidagi mezonlar  $\pi_b^{\varrho}$  parametrlardagi mezonlardan yomon emasligi hamda kamida bitta mezon bo'yicha  $\pi_a^{\varrho}$  ustunligini bildiradi. Mazkur qoida asosida barcha individlar Pareto frontlarga quyidagicha ajratiladi:

1. Birinchi front  $\mathfrak{F}_1$  aniqlanadi. Pareto-optimal yechim bu to'plamdagi har bir yechim hech bir boshqa yechim tomonidan dominant qilinmaslik asosida aniqlanadi,

$$\mathfrak{F}_1 = \{\pi_c^{\varrho} \in \mathfrak{P}_t \mid \nexists \pi_{c^*}^{\varrho} \in \mathfrak{P}_t, \pi_{c^*}^{\varrho} < \pi_c^{\varrho}\},$$

bu yerda  $t$  populyatsiya tartibi;

2. Ikkinchi front  $\mathfrak{F}_2$  aniqlanadi. Bu to'plamdagi har bir yechim faqat  $\mathfrak{F}_1$  front yechimlar tomonidan dominant qilinadi,

$$\mathfrak{F}_2 = \{\pi_c^e \in \mathfrak{F}_t \mid \nexists \pi_{c^*}^e \in \mathfrak{F}_t \setminus \mathfrak{F}_1, \pi_{c^*}^e < \pi_c^e\};$$

3. Uchinchi front  $\mathfrak{F}_3$  va keyingi frontlar iterativ tarzda aniqlanadi. Har bir keyingi front oldingi barcha frontlar tomonidan dominant qilinadigan yechimlarni o‘z ichiga olish orqali iterativ aniqlanadi.

$$\mathfrak{F}_e = \{\pi_c^e \in \mathfrak{F}_t \mid \nexists \pi_{c^*}^e \in \mathfrak{F}_t \setminus \bigcup_{i=1}^{e-1} \mathfrak{F}_i, \pi_{c^*}^e < \pi_c^e\}.$$

**5-bosqich.** *Yechimlar orasidagi to‘planish masofasini (Crowding distance) hisoblash amalga oshiriladi.* Bu masofa Pareto-frontdagi dominatsiya darajasi bir xil bo‘lganda xilma-xillikni saqlash maqsadida foydalaniladi. Bu xilma-xillik Pareto chiziq bo‘ylab teng taqsimlangan yechimlar olishga xizmat qiladi. Har bir frontdagi individlar uchun to‘planish masofasi quyidagicha aniqlanadi:

$$CD_r(\pi_i^e) = \sum_{j=1}^4 \frac{\Phi_j(\pi_{i+1}^e) - \Phi_j(\pi_{i-1}^e)}{\Phi_j^{\max} - \Phi_j^{\min}},$$

bu yerda  $r$  – front tartibi,  $\pi_{i-1}^e, \pi_{i+1}^e$  – front ichidagi individlarni  $\Phi_i$  mezon qiymatlari bo‘yicha tartiblashdan so‘ng,  $\pi_i^e$  dan oldin va keyin keladigan parametrlar, ya’ni qo‘shni parametrlar. Front ichidagi individlarni mezon bo‘yicha tartiblashda birinchi va oxirida joylashgan individlarning to‘planish masofasini qiymatlari  $\infty$  qilib olinadi,  $\Phi_i^{\max} = \max_{\pi_i^e \in \mathfrak{F}_r} \Phi_i(\pi_i^e)$ ,  $\Phi_i^{\min} = \min_{\pi_i^e \in \mathfrak{F}_r} \Phi_i(\pi_i^e)$ .

**6-bosqich.** *Seleksiyasi protsedurasi amalga oshiriladi.* Bu protsedura yaxshi individlarni tanlab, keyingi avlodni yaratish uchun ishlatiladigan ota-onalarni tanlash yondashuvidir.  $\mathcal{N}$  marta turnir amalga oshiriladi. Har bir turnirda  $\pi_x^e, \pi_y^e$  2 ta individ  $x \neq y$  shart asosida bir ehtimollik bilan tasodifiy tanlaniladi. G‘olib individni tanlash front tartib raqami asosida amalga oshiriladi. Agar 2 ta individning front tartibi bir xil bo‘lsa, tanlash to‘planish masofasi bo‘yicha amalga oshiriladi,

$$\pi_j^* = \begin{cases} \pi_x^e, & \mathfrak{R}(\pi_x^e) < \mathfrak{R}(\pi_y^e); \\ \pi_y^e, & \mathfrak{R}(\pi_x^e) > \mathfrak{R}(\pi_y^e); \\ \pi_x^e, & \mathfrak{R}(\pi_x^e) = \mathfrak{R}(\pi_y^e) \text{ va } CD_r(\pi_x^e) > CD_r(\pi_y^e); \\ \pi_y^e, & \text{aks holda,} \end{cases}$$

bu yerda  $j \in \{1, 2, \dots, \mathcal{N}\}$ ,  $\mathfrak{R}(\ast)$  – front tartib raqamini aniqlash funksiyasi,  $r = \mathfrak{R}(\pi_x^e)$ .

Seleksiya natijasida aniqlangan individlar to‘plami quyidagicha aniqlanadi,

$$B_t = \{\pi_1^*, \pi_2^*, \dots, \pi_{\mathcal{N}}^*\}.$$

**7-bosqich.** *Krossover protsedurasi amalga oshiriladi.* Bu protsedura ikki “ota-ona” individdan yangi “farzand” individlar yaratish operatori bo‘lib, u genetik algoritmlarda asosiy eksplotatsiya mexanizmi hisoblanadi. Uning maqsadi – yaxshi yechimlarning kombinatsiyasi orqali yanada yaxshiroq yechimlar olish.  $\mathcal{N}/2$  ota-ona juftligini tanlash quyidagicha aniqlanadi. Undan dastlab  $\pi_a^*$  bitta individ tasodifiy tanlaniladi. Keyin  $\pi_b^*$  bitta individ  $a \neq b$  shartga ko‘ra tasodifiy tanlaniladi. Shu tarzda  $(\pi_a^*, \pi_b^*)$  ota-ona juftligi hosil qilinadi. Tanlangan ota-ona juftligidan yangi avlodlar hosil qilinadi. Bu yondashuvda biz simulyatsiya qilingan ikkilik crossover (Simulated Binary Crossover, SBX) strategiyasidan foydalanamiz.

Ikkita ota-ona quyidagicha ko‘rinishda berilgan bo‘lsa,

$$\pi_a^* = (\pi_{a,1}^*, \pi_{a,2}^*, \dots, \pi_{a,d}^*),$$

$$\pi_b^* = (\pi_{b,1}^*, \pi_{b,2}^*, \dots, \pi_{b,d}^*),$$

bu yerda  $d = 4T$ .

U holda SBX strategiyasida  $\gamma_q$  qiymati quyidagicha aniqlanadi,

$$\gamma_q = \begin{cases} (2u_q)^{\frac{1}{\eta_c+1}}, & u_q \leq 0.5; \\ \left(\frac{1}{2(1-u_q)}\right)^{\frac{1}{\eta_c+1}}, & u_q > 0.5, \end{cases}$$

bu yerda  $u_q \sim \mathcal{U}(0,1)$  ehtimollikdagi tasodifiy son,  $\eta_c > 0$  crossover kuchini aniqlovchi parametr.

2 ta yangi avlodning har bir genini aniqlash esa quyidagicha amalga oshiriladi,

$$\pi_{c_l,i}^* = \frac{(1+\gamma_q)\pi_{a,i}^* + (1-\gamma_q)\pi_{b,i}^*}{2},$$

$$\pi_{q_m,i}^* = \frac{(1-\gamma_q)\pi_{a,i}^* + (1+\gamma_q)\pi_{b,i}^*}{2}.$$

Barcha hosil qilingan individlar to'plami quyidagicha aniqlanadi,

$$K_t = K_t^1 \cup K_t^2,$$

bu yerda  $K_t^1 = \{\pi_{c_l}^* \mid l \in \{1,2,\dots,\mathcal{N}/2\}\}$ ,  $K_t^2 = \{\pi_{q_m}^* \mid m \in \{1,2,\dots,\mathcal{N}/2\}\}$ .

**8-bosqich.** *Mutatsiya protsedurasi amalga oshiriladi.* Evolyutsion algoritmlarda qo'llaniladigan diversifikatsiyani oshiruvchi operator bo'lib, u mavjud individlardagi qiymatlarni tasodifiy ravishda ozgina o'zgartirish orqali yangi qidiruv sohaslariga chiqish imkonini beradi. Buni amalga oshirishda biz ko'p hadli mutatsiya usulidan foydalandik. Bu usulda  $i$ -genning qiymatini mutatsiya qilish quyidagicha aniqlanadi,

$$\pi_{k,i}^m = \pi_{k,i} + \delta_i(\pi_i^{\max} - \pi_i^{\min}),$$

bu yerda  $\delta_i$  – ko'p hadli perturbatsiya,  $\pi_i^{\max}$ ,  $\pi_i^{\min}$  –  $i$ -genning aniqlanish sohasining yuqori va quyi chegara qiymatlari,  $\pi_{k,i}^*$  –  $i$ -genning mutatsiyadan keyingi qiymati. Ko'p hadli perturbatsiyani hisoblash quyidagi shaklda amalga oshiriladi,

$$\delta_i = \begin{cases} (2u_i)^{\frac{1}{\eta_m+1}}, & u_i \leq 0.5; \\ 1 - (2(1-u_i))^{\frac{1}{\eta_m+1}}, & u_i > 0.5, \end{cases}$$

bu yerda  $u_i \sim \mathcal{U}(0,1)$  ehtimollikdagi tasodifiy son,  $\eta_m$  – mutatsiya tarqoqlik darajasi parametri,  $\delta_i \in [-1; 1]$ .  $\eta_m$  qiymati qanchalik katta bo'lsa, mutatsiya kichik o'zgarishlarga olib keladi.  $\eta_m$  qiymati kichik bo'lsa, mutatsiya katta o'zgarishlarga olib keladi.

Mutatsiya har bir individning genlari bo'yicha amalga oshiriladi. Bu jarayon  $\mathcal{N}$  marta amalga bajariladi. Natijaviy to'plam quyidagi shaklda aniqlanadi,

$$\mathbb{M}_t = \{\pi_1^m, \pi_2^m, \dots, \pi_{\mathcal{N}}^m\}.$$

**9-bosqich.** *Populyatsiya va mutatsiyani birlashtirilish amalga oshiriladi.*

$$\mathcal{R}_t = \mathfrak{F}_t \cup \mathbb{M}_t,$$

bu yerda  $|\mathcal{R}_t| = 2\mathcal{N}$ .

10-bosqich. *Eng yaxshi  $\mathcal{N}$  ta individni tanlash amalga oshiriladi.* Dastlab  $\mathcal{R}_t$  to'plam bo'yicha 4 va 5-bosqichlar qayta amalga oshiriladi. Natijada pareto dominant bo'lmagan tartiblash hamda yechimlar orasidagi to'planish masofasini aniqlash bajariladi.

Ushbu bosqichlar bajarilganda so'ng eng yaxshi  $\mathcal{N}$  ta individni tanlash esa quyidagi qadamlarda amalga oshiriladi.

**1-qadam.**  $|\mathbb{U}| < \mathcal{N}$  shart qanoatlantiriladigan  $\mathbb{U}$  to'plam elementlari aniqlanadi,

$$\mathbb{U} = \bigcup_{j=1}^{r-1} \mathfrak{F}_j,$$

bu yerda  $r$  qiymati  $\sum_{j=1}^{r-1} |\mathfrak{F}_j| < \mathcal{N}$ ,  $\sum_{j=1}^r |\mathfrak{F}_j| \geq \mathcal{N}$  shartlar asosida aniqlanadi.

**2-qadam.**  $r$ -frontning elementlari to‘planish masofasi bo‘yicha kamayish tartibidagi vektori aniqlandi,

$$\mathfrak{F}^r = (\pi^r_{1^*}, \pi^r_{2^*}, \dots, \pi^r_{\mathcal{N}^*}), \quad \pi^r_{i^*} > \pi^r_{i+1^*}, \quad i \in [1.. \mathcal{N} - 1].$$

**3-qadam.**  $\mathfrak{F}^r$  vektordan  $\mathfrak{h} = \mathcal{N} - \sum_{j=1}^{r-1} |\mathfrak{F}_j|$  ta elementli to‘plam hosil qilinadi,

$$\mathbb{S} = \bigcup_{j=1}^{\mathfrak{h}} \{\pi^r_{j^*}\}.$$

**4-qadam.** Eng yaxshi  $\mathcal{N}$  ta individ to‘plami, ya’ni populyatsiya aniqlanadi,

$$\mathfrak{P}_{t+1} = \mathbb{U} \cup \mathbb{S}.$$

**11-bosqich.** Agar  $t + 1 \geq T$  shart tekshiriladi: agar shart bajarilsa, u holda  $t \leftarrow t + 1$  hisoblash amalga oshirilib, keyingi qadamga o‘tiladi, aks holda  $t \leftarrow t + 1$  hisoblash amalga oshirilib, keyingi populyatsiyani amalga oshirish uchun 2-bosqichga o‘tiladi.

**12-bosqich.** *Pareto optimal yechimlar to‘plamini aniqlash amalga oshiriladi.*

$\mathfrak{P}_T$  populyatsiyadan birinchi front  $\mathfrak{F}^*$  aniqlanadi. Pareto-optimal yechim bu to‘plamdagi har bir yechim hech bir boshqa yechim tomonidan dominant qilinmaslik asosida aniqlanadi,

$$\mathfrak{F}^*_1 = \{\pi_c^\ell \in \mathfrak{P}_t \mid \nexists \pi_{c^*}^\ell \in \mathfrak{P}_T, \pi_{c^*}^\ell < \pi_c^\ell\}.$$

PSNR, SSIM, ERGAS, SAM mezonlar asosida ko‘p mezonli optimallashtirish masalasini yechish NSGA-II algoritmi bilan amalga oshirildi. Ushbu algoritm natijasida bir vaqtning o‘zida bir-birini ustun qilmaydigan bir nechta yechimlardan iborat Pareto optimal yechimlar to‘plami hosil bo‘ladi. Biroq, amaliy holatlarda bu yechimlar ichidan bitta yakuniy optimal yechimni tanlash talab etiladi. Bu esa optimallashtirishdan keyingi tanlov bosqichi hisoblanadi. Pareto yechimlar to‘plamidan yagona yechimni tanlash masalasi ko‘p mezonli qaror qabul doirasida qaraladi. Bu jarayonda quyidagi asosiy yondashuvlar keng qo‘llaniladi:

vaznli yig‘indi yondashuvi – har bir mezon uchun muhimlik darajasiga asoslangan vazn qiymatlari belgilanadi va yechimlar umumiy ball asosida baholanadi. Bu usul intuitiv va soddaligi sababli keng qo‘llaniladi, biroq vazn og‘irliklarini aniqlash subyektiv bo‘lishi mumkin [8].

metrikalarga asoslangan yondashuv – har bir yechim ideal (utopia) nuqtaga masofasi asosida baholanadi va eng yaqin yechim tanlanadi. Masalan, Chebychev yoki Evklid masofasi orqali baholash mumkin. Bu yondashuv mezonlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlashda samarali hisoblanadi [9,10].

entropiya yoki dispersiyaga asoslangan muvozanatli tanlov yondashuvi – har bir mezon bo‘yicha o‘zgaruvchanlik (variyans yoki entropiya) darajasiga qarab ularning muhimligi avtomatik tarzda aniqlanadi. Bu yondashuv subyektiv og‘irlik belgilash muammosini kamaytiradi va muvozanatli yechimlarni tanlashga yordam beradi [11,12].

TOPSIS [13], VIKOR [14], AHP [15] usullari – murakkab holatlarda tanlovni formalashtirish uchun ishlatiladi. Ushbu usullar Pareto frontdagi yechimlarni reytinglash orqali eng optimalini aniqlaydi. Masalan, TOPSIS yechimlarni ideal va anti-ideal nuqtalarga masofa asosida baholaydi, VIKOR kompromis yechimni tanlaydi, AHP esa juft taqqoslash orqali mezon vaznlarini belgilaydi.

Ushbu yondashuvlarning har biri muayyan sharoit va maqsadlar uchun o‘ziga xos afzalliklarga ega. Masalan, agar biror mezon – eng muhim ko‘rsatkich sifatida qaralsa,

unga yuqoriroq vazn berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Aksincha, ayrim holatlarda barcha mezonlarni teng ahamiyatda, ya'ni muvozanatli baholash zarur bo'ladi.

Bundan tashqari, Pareto frontdan yakuniy yechim tanlash jarayoni foydalanuvchi afzalliklari va sektor talablari – masalan, geologik monitoring, qishloq xo'jaligi, shaharsozlik yoki ekologik tahlil – hamda ekspert baholari asosida moslashtirilishi mumkin.

Ushbu yondashuvlarning har biri turli vaziyatlar uchun afzalliklarga ega. Masalan, agar biror mezon (masalan, SAM) spektral jihatidan muhimroq bo'lsa, unga yuqoriroq vazn berish mumkin. Boshqa holatlarda esa barcha mezonlar muvozanatda baholanishi zarur. Shu bilan birga, Pareto ichidan tanlovni foydalanuvchi afzalliklari, sektor ehtiyojlari, masalan, geologik monitoring, qishloq xo'jaligi, shaharsozlik yoki ekspert baholari asosida sozlash ham mumkin.

Shu bois, Pareto to'plamidan optimal yechimni aniqlash masalasi sun'iy intellekt asosidagi avtomatik qaror qabul qilish tizimlarida muhim modul sifatida namoyon bo'ladi. Bu bosqich pansharpening natijalarining sifatini obyektiv baholash va amaliy qo'llashda hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi.

**Tajriba natijalari va tahlili.** Tajriba ishlarini amalga oshirish uchun PairMax Dataset dan foydalanildi. Ushbu ma'lumotlar to'plami pansharpening algoritmlarini baholash uchun mo'ljallangan yuqori sifatli benchmark to'plam hisoblanadi. PairMax to'plamida multispektral va panxromatik juft tasvirlar mavjud bo'lib, ular WorldView-3, QuickBird, va GeoEye-1 kabi sun'iy yo'ldoshlar tomonidan olingan turli sahnalardan iborat.

PairMax Dataset o'zida quyidagi xususiyatlarni mujassam etadi: PAN tasvirlar yuqori fazoviy aniqlikka (0.3–0.5 m/piksel) ega; MS tasvirlar 4–8 ta spektral kanalni o'z ichiga oladi; har bir juftlik aniq geometrik va radiometrik moslik asosida oldindan qayta ishlangan; etalon tasvirlar mavjud bo'lib, ular algoritmlarni PSNR, SSIM, SAM, ERGAS kabi metrikalar asosida obyektiv baholash imkonini beradi.

PairMax Dataset'dagi sahnalar shaharsozlik, qishloq xo'jaligi, o'rmon, va sohil zonalari kabi turli landshaft turlarini qamrab oladi. Bu esa taklif etilgan MoE algoritmik kompozitsiyasining turli spektral va fazoviy sharoitlarda sinovdan o'tishiga imkon berdi.

Shu bois, barcha tajriba natijalari PairMax ma'lumotlar to'plami asosida o'tkazilgan bo'lib, taklif etilgan MoE + NSGA-II yondashuvi mavjud klassik ekspertlar bilan solishtirildi.

Taklif etilgan statik yo'naltirishga asoslangan MoE algoritmik kompozitsiyasi bir nechta tajriba sharoitlarida sinovdan o'tkazildi. Ushbu modelda olti turdagi klassik ekspert algoritmlar IHS, PCA, Brovey, GS, GSA va BDSF [3] – mustaqil ekspert sifatida tanlandi. Har bir ekspert turli matematik prinsiplarga asoslanib, fazoviy va spektral xususiyatlarni ifodalashda o'ziga xos yondashuvni ta'minladi.

Tajriba jarayonida multispektral tasvirlar panxromatik tasvir o'lchamiga Lanchosh interpolatsiyasi yordamida moslashtirildi. Keyingi bosqichda yuqorida keltirilgan NSGA-II evolyutsion algoritmi parametrlar sozlash uchun qo'llanilib, PSNR, SSIM, ERGAS va SAM asosiy sifat mezonlarini birgalikda minimallashtiruvchi ko'p mezonli optimallashtirish amalga oshirildi.

Optimallashtirish jarayonida populyatsiya hajmi 100 individ etib belgilandi, umumiy avlodlar soni esa 200 ni tashkil etdi. Tajriba davomida hosil bo'lgan har bir individ uchun Pareto front yechimlari shakllantirildi. Pareto frontda joylashgan yechimlar o'rtasidan yakuniy yagona optimal yechimni tanlash uchun Multi-Criteria Decision Making (MCDM) yondashuvlaridan – ya'ni TOPSIS, VIKOR va AHP usullaridan – foydalanildi. Shu tarzda taklif etilgan MoE modeli ko'p mezonli optimallashtirish asosida fazoviy va spektral muvozanatni ta'minlovchi eng maqbul yechimni aniqlash imkonini berdi.

Pareto front tahlili. NSGA-II algoritmi 200 avlod yakunida dominant bo‘lmagan Pareto yechimlar to‘plamini hosil qildi. Yechimlar PSNR↑, SSIM↑, ERGAS↓, SAM↓ kabi qarama-qarshi yo‘nalishli mezonlar asosida baholandi.

Tahlil natijalariga ko‘ra:

PSNR qiymati oshgan sari ERGAS biroz kamayadi, bu esa fazoviy tafsilotlarning kuchayishi evaziga global nisbiy xatolikning pasayishini bildiradi;

SSIM  $\geq 0.95$  va SAM  $\leq 3^\circ$  oraliqlaridagi yechimlar eng maqbul kompromis sifatida aniqlangan;

Pareto front chizig‘i bo‘ylab yechimlar xilma-xilligi optimal taqsimlangan.

PairMax Dataset bo‘yicha pansharpening tajribalar natijalari

| Usullar                | PSNR         | SSIM         | ERGAS       | SAM (°)     | Izoh   |
|------------------------|--------------|--------------|-------------|-------------|--|
| IHS                    | 36.85        | 0.925        | 5.12        | 4.96        | Rang komponenti asosida fazoviy tafsilotlarni kuchaytiradi, ammo spektral buzilish mavjud.         |
| Brovey                 | 38.21        | 0.932        | 4.81        | 4.35        | PAN nisbati asosida kontrastni oshiradi, lekin spektral sadoqat pasayadi.                          |
| PCA                    | 39.14        | 0.940        | 4.46        | 3.90        | Asosiy komponent almashtirish orqali fazoviy yaxshilanish beradi, ammo ozgina rang og‘ishi mavjud. |
| GS                     | 39.82        | 0.947        | 4.15        | 3.64        | Ortogonal proyeksiya orqali spektral izchillikni saqlaydi.   |
| GSA                    | 40.10        | 0.951        | 3.95        | 3.42        | PAN va MS regressiyasi orqali muvozanatli natija beradi.   |
| BDSB                   | 40.45        | 0.954        | 3.72        | 3.21        | Har kanal uchun adaptiv fazoviy modulyatsiyani qo‘llaydi.  |
| <b>Vaznli yig‘indi</b> | <b>41.05</b> | <b>0.960</b> | <b>3.53</b> | <b>2.93</b> | Mezonlarga belgilangan og‘irliklar asosida umumiy ballni maksimalashtiradi.                        |
| <b>TOPSIS</b>          | <b>41.20</b> | <b>0.962</b> | <b>3.42</b> | <b>2.87</b> | Ideal va anti-ideal nuqtalar orasidagi masofa asosida eng yaqin yechimni tanlaydi.                 |
| <b>VIKOR</b>           | <b>41.18</b> | <b>0.961</b> | <b>3.46</b> | <b>2.90</b> | Kompromis yechimni aniqlaydi, Pareto frontning markaziy qismidan yechim tanlaydi.                  |
| <b>AHP</b>             | <b>41.10</b> | <b>0.959</b> | <b>3.49</b> | <b>2.92</b> | Juft taqqoslash orqali mezonlar ustuvorligini aniqlab, yakuniy reytingni shakllantiradi.           |

Jadvalda PairMax Dataset asosida o‘tkazilgan pansharpening tajribalarining asosiy sifat ko‘rsatkichlari keltirilgan. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, taklif etilgan MoE + NSGA-II modelining yakuniy natijalari (Vaznli yig‘indi, TOPSIS, VIKOR, AHP yondashuvlari) klassik ekspert usullariga nisbatan sezilarli darajada yaxshilangan.

Klassik algoritmlar orasida GSA va BDSB eng yuqori sifatni ko‘rsatgan. GSA usuli regressiya asosida PAN va MS o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, PSNR = 40.10 dB, SSIM = 0.951, ERGAS = 3.95, va SAM = 3.42° natijalarini bergan. BDSB esa har bir spektral kanal uchun PANning mos og‘irliklarini adaptiv tarzda tanlash orqali PSNR = 40.45 dB, SSIM = 0.954, ERGAS = 3.72, SAM = 3.21° qiymatlarni qayd etgan.

Biroq, ko'p mezonli optimallashtirish asosida o'tkazilgan MoE algoritmik kompozitsiyasi bu natijalardan ham yuqoriroq samaradorlikni namoyish qildi. Jumladan:

Vaznli yig'indi yondashuvi – soddaligi bilan ajralib turadi, barcha mezonlar uchun oldindan belgilangan og'irliklar asosida umumiy ballni hisoblab chiqadi. Natijada PSNR = 41.05 dB, SSIM = 0.960, ERGAS = 3.53, SAM = 2.93° qiymatlar olindi.

TOPSIS yondashuvi – ideal va anti-ideal nuqtalarga masofa hisoblash orqali eng muvozanatli yechimni tanladi. Bu usul eng yuqori natijani berdi: PSNR = 41.20 dB, SSIM = 0.962, ERGAS = 3.42, SAM = 2.87°. Shunday qilib, u eng optimal Pareto yechim sifatida belgilandi.

VIKOR yondashuvi – kompromis yechimni tanlab, Pareto frontning markaziy qismidan muvozanatli natijani berdi.

AHP yondashuvi – juft taqqoslash asosida mezonlar ustuvorligini qayta baholab, yakuniy reytingni shakllantirdi.

Umuman olganda, MCDM yondashuvlari (Vaznli yig'indi, TOPSIS, VIKOR, AHP) o'zaro juda yaqin natijalar bergan bo'lib, bu tanlov barqarorligini va Pareto frontning silliq tuzilishini tasdiqlaydi. Eng yuqori PSNR va SSIM qiymatlari TOPSIS usuli tomonidan qayd etilgan, bu esa taklif etilgan algoritmnining fazoviy tafsilotlarni tiklash va spektral sadoqatni saqlash bo'yicha eng muvozanatli yechimni ta'minlaganini ko'rsatadi.

Spektral burchak (SAM) qiymatining 4.9° dan 2.87° gacha pasayishi rang sadoqatining yaxshilanganini, ERGAS qiymatining 5.12 dan 3.42 gacha kamayishi esa umumiy nisbiy xatolikning sezilarli ravishda kamayganini bildiradi. Bu esa MoE algoritmik kompozitsiyasining klassik usullarga nisbatan yanada aniqroq, izchil va spektral moslikni saqlagan holda natijalar berish qobiliyatini namoyon etadi.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, taklif etilgan MoE + NSGA-II modeli barcha klassik ekspert algoritmlaridan yaxshiroq fazoviy-spektral muvozanatni ta'minladi. Xususan, TOPSIS va VIKOR yondashuvlari bilan tanlangan Pareto yechimlar PSNR ≈ 41.2 dB va SSIM ≈ 0.962 qiymatlarni ko'rsatib, eng yuqori sifat natijalariga erishildi.

Vaznli yig'indi yondashuvi soddaligi bilan ajralib tursa-da, TOPSIS va VIKOR natijalari unga nisbatan biroz yaxshiroq bo'ldi. AHP esa subyektiv og'irliklarni inobatga olgan holda muvozanatli yechim tanladi. Barcha MCDM yondashuvlari o'zaro yaqin natijalar bergani ularning tanlov barqarorligini ko'rsatadi.


Shuningdek, PSNR bo'yicha GSA va BDSO usullari bilan solishtirganda 1.0–1.2 dB, SSIM bo'yicha esa 0.010–0.012 ustunlik kuzatildi. Bu kichik farq bo'lsa-da, vizual tahlilda fazoviy tafsilotlarning tiklanishi va spektral sadoqatning yaxshilanishi aniq sezildi.

Rasmda klassik pansharpening ekspertlari (IHS, Brovey, PCA, GS, GSA, BDSO) va MCDM asosida tanlangan Pareto optimal yechimlar (Vaznli yig'indi, TOPSIS, VIKOR, AHP) o'rtasidagi natijalar taqqoslangan. Gorizonttal o'qda ERGAS (umumiy nisbiy xato) qiymati, vertikal o'qda esa PSNR (fazoviy aniqlik) qiymati joylashtirilgan. Grafikdagi chap yuqori burchak eng maqbul natijani bildiradi, ya'ni PSNR yuqori, ERGAS past.

Klassik ekspertlar tahlili. Klassik usullar fazoviy-spektral muvozanat bo'yicha sezilarli farq ko'rsatadi. IHS va Brovey fazoviy tafsilotlarni kuchaytiradi, biroq spektral sadoqatni buzadi. PCA va GS muvozanatli natijalar beradi, lekin rang noaniqliklari saqlanib qoladi. GSA va ayniqsa BDSO Pareto frontga yaqin joylashib, eng barqaror muvozanatni ta'minlaydi.

MoE + NSGA-II modeli asosida tanlangan MCDM yechimlari grafikning chap yuqori qismida joylashgan. TOPSIS eng optimal natijani beradi (PSNR = 41.2 dB, ERGAS = 3.42), VIKOR esa unga yaqin, biroq biroz katta xato bilan (ERGAS = 3.46).

Vaznli yig'indi va AHP yondashuvlari ham yuqori PSNR va past ERGAS qiymatlari bilan barqaror yechimlarni ta'minlaydi.



Pareto front: PSNR–ERGAS asosida yechimlar taqsimoti

ERGAS kamaygan sari PSNR ortmoqda, bu esa algoritmik kompozitsiyaning xatolikni kamaytirish bilan birga fazoviy aniqlikni oshirganini ko'rsatadi. Natijada Pareto front silliq va turg'un yo'nalishda shakllanib, optimallashtirish jarayonining izchil ishlashini tasdiqlaydi.

**XULOSA.** Ushbu tadqiqotda taklif etilgan statik yo'naltirishga asoslangan MoE algoritmik kompozitsiyasi PairMax Dataset ma'lumotlari asosida sinovdan o'tkazildi. Modelda olti xil klassik ekspert — IHS, PCA, Brovey, GS, GSA va BDS algoritmlari mustaqil tahlil qilinib, ularning natijalari MoE algoritmik kompozitsiyasi NSGA-II evolyutsion algoritmi yordamida PSNR, SSIM, ERGAS va SAM mezonlari bo'yicha ko'p mezonli optimallashtirish asosida parametrlarni sozlash amalga oshirildi. Natijada hosil bo'lgan Pareto front yechimlari orasidan MCDM usullari – vaznli yig'indi, TOPSIS, VIKOR va AHP orqali yagona optimal yechim tanlandi. Tahlil natijalariga ko'ra, TOPSIS yondashuvi eng muvozanatli yechimni ta'minlab, PSNR = 41.2 dB, SSIM = 0.962, ERGAS = 3.42, va SAM = 2.87° qiymatlarni qayd etdi. Bu natijalar klassik ekspertlarga nisbatan fazoviy tafsilotlarni yaxshiroq tiklash va spektral sadoqatni saqlash bo'yicha sezilarli ustunlikni ko'rsatdi. Ayniqsa, ERGAS va SAM qiymatlarining kamayishi algoritmik kompozitsiyasining spektral xatolikni kamaytirish va rang muvozanatini saqlash qobiliyatini ko'rsatdi.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, MoE +NSGA-II+ MCDM integratsiyasi fazoviy–spektral kompromisni muvozanatli ta'minlash, Pareto front barqarorligini saqlash, hamda optimal yechimlarni avtomatik tanlash imkonini beradi. Shunday qilib,

taklif etilgan yondashuv pansharpening sifatini yaxshilash va sun'iy intellekt asosidagi qaror qabul qilish tizimlarida samarali komponent sifatida qo'llanishi mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yusupov O.R. Komponentni o'zgartirishga asoslangan pansharpening usullari, Hisoblash va amaliy matematika muammolari. 2025. №2/1 (65).101 – 109-betlar.
2. Fazilov Shavkat, Yusupov Ozod, Radjabov Sobirjon, Eshonqulov Erali, Abdieva Khabiba. Analysis of pansharpening methods for multispectral satellite imagery // AIP Conf. Proc. 27 November, 2024. 3244 (1). 030080.
3. Fazilov Sh., Yusupov O., Eshonqulov E., Abdieva K., Malikov Z., YUV Color Model-Based Adaptive Pansharpening with Lanczos Interpolation and Spectral Weights // Mathematics. 2025. №13. P.28 – 68.
4. Фазылов Ш.Х., Ганченко В.В., Инютин А.В., Юсупов О.Р. Перспективы использования алгоритмических ансамблей для анализа изображений ДЗЗ // «Информатика ва энергетика муаммолари» Ўзбекистон журнали. Тошкент, 2023. 6-сон. 3 – 10 бетлар.
5. Yusupov O.R. Zich ekspertlar aralashmasi strategiyasi asoslangan pansharpening algoritmik kompozitsiyasi // Informatika va energetika muammolari (O'zbekiston jurnali). Toshkent, 2024. 6-son. B. 7–14.
6. Yusupov O. Quality assessment parameters of the images obtained with pansharpening methods // AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2024. T. 3244. №. 1.
7. Adaptive mixtures of local experts / Jacobs R.A., Jordan M.I., Nowlan S.J., Hinton G.E. // Neural Computation. 1991. №. 3. P. 79 – 87.
8. Deb K. , Pratap A. , Agarwal S., Meyarivan T. A fast and elitist multiobjective genetic algorithm: nsga-II // Trans. Evol. Comp. April 2002. №6(2). P.182–197.
9. Steuer R.E. Multiple Criteria Optimization: Theory, Computation, and Application. Wiley, 1986.
10. Zitzler et al. Performance Assessment of Multiobjective Optimizers // IEEE Trans. Evol. Comput., 2003.
11. Shannon C.E. A Mathematical Theory of Communication. Bell System Tech. J., 1948.
12. Zou et al., Entropy-based Weighting in Multi-Criteria Decision Making, Expert Systems with Applications, 2006.
13. Hwang & Yoon, “Multiple Attribute Decision Making: Methods and Applications,” Springer, 1981.
14. Opricovic & Tzeng, “Compromise Solution by MCDM: The VIKOR Method,” Eur. J. Oper. Res., 2004.
15. Thomas L.Saaty. The Analytic Hierarchy Process. McGraw-Hill, 1980.

## KORPORATIV SOLIQ TIZIMLARI UCHUN AXBOROT ALMASHINUVI JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH VA KOORDINATSION BOSHQARUV ALGORITMI

Ushbu maqolada korporativ soliq tizimlarida axborot almashinuvini jarayonlarini optimallashtirish va koordinatsion boshqaruv algoritmi taklif etiladi. Tadqiqotda tizimli tahlil yondashuvi asosida axborot oqimlarining murakkabligi hisobga olinadi, jarayonlar o'zaro bog'liqligi grafik modellash orqali ifodalanadi. Shuningdek, boshqaruv algoritmlari samaradorligi hisoblash tajribalari orqali baholanadi. Natijalar korporativ soliq tizimlarida axborot xavfsizligi va uzluksiz ishlashni ta'minlashda amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** korporativ soliq tizimi, axborot almashinuvi, koordinatsion boshqaruv, optimallashtirish, algoritim.

M.M.Фозилова, Д.Н.Учкунова

### Оптимизация процессов обмена информацией и алгоритм координационного управления для корпоративных налоговых систем

В данной статье предлагаются методы оптимизации процессов обмена информацией и алгоритм координационного управления в корпоративных налоговых системах. В исследовании учитывается сложность информационных потоков на основе системного анализа, а взаимосвязь процессов представляется с помощью графического моделирования. Эффективность предложенных алгоритмов управления оценивается с использованием вычислительных экспериментов. Полученные результаты имеют практическое значение для обеспечения информационной безопасности и бесперебойного функционирования корпоративных налоговых систем.

**Ключевые слова:** системный анализ, корпоративная налоговая система, обмен информацией, координационное управление, математическая модель, алгоритм.

M.M.Fozilova, D.N.Uchqunova

### Optimization of Information Exchange Processes and Coordination Control Algorithm for Corporate Tax Systems

This article proposes an optimization method for information exchange processes and a coordination control algorithm in corporate tax systems. The study takes into account the complexity of information flows based on a systems analysis approach, and the interconnections of processes are represented through graphical modeling. In addition, the efficiency of the proposed control algorithms is evaluated through computational experiments. The results have practical significance in ensuring information security and uninterrupted operation in corporate tax systems.

**Keywords:** systems analysis, corporate tax system, information exchange, coordination control, mathematical model, algorithm.

**Kirish.** Hozirgi davrda korporativ soliq tizimlari davlat va biznes subyektlari o'rtasidagi axborot almashinuvini jarayonlarining markaziy tuguni hisoblanadi [1–14]. Bunday tizimlarda yuzlab subyektlar — soliq organlari, yuridik va jismoniy shaxslar, banklar, audit xizmatlari — axborot oqimlarida ishtirok etadi. Ushbu murakkab jarayonlarni nazorat qilish va samarali boshqarish tizimning ishonchliligi, shaffofligi va tezkorligiga bevosita ta'sir qiladi [1].

An'anaviy yondashuvlarda axborot almashinuvini ko'pincha markazlashgan ma'lumotlar bazalari yoki oddiy verifikatsiya mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Ammo soliq tizimlarining o'sib borayotgan hajmi, xavfsizlik talablarining ortishi va real vaqt rejimida ishlash zarurati yangi koordinatsion boshqaruv algoritmlarini ishlab chiqishni talab etmoqda [2].

Maqolaning maqsadi – korporativ soliq tizimlarida axborot almashinuvi jarayonlarini nazoratlash va koordinatsion boshqarishning matematik modelini ishlab chiqish hamda algoritmik yechimlarini taklif qilishdir.

**Usullar. 1. Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda boshqaruv nazariya-sining koordinatsion modellariga tayangan algoritmik yondashuv qo‘llanilgan. Ushbu yondashuv tizimdagi axborot oqimlarini optimallashtirish, ularning o‘zaro muvofiqligini ta‘minlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini avtomatlashtirish imkonini beradi [3]. Modellar asosida ishlab chiqilgan algoritmlar har bir boshqaruv darajasida ma‘lumotlarning tahlilini, qayta ishlanishini va natijalarning koordinatsion uzatilib borishini ta‘minlaydi. Natijada, tizim komponentlari o‘rtasida samarali axborot almashinuvi shakllanadi va boshqaruv jarayonining barqarorligi oshadi. Matematik jihatdan **koordinatsion boshqaruv model axborot oqimlari grafi** ko‘rinishida ifodalanadi, bunda tugunlar boshqaruv markazlari yoki axborot bloklarini, yo‘nalishlar esa ularning o‘zaro ta‘sirini bildiradi. Har bir aloqa uchun kechikish, ishonchlilik va o‘tkazuvchanlik ko‘rsatkichlari aniqlanadi [4].

**2. Koordinatsion boshqaruv modeli.** Model quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

- **Axborot tugunlari** – soliq subyektlari, buxgalteriya tizimlari, davlat soliq inspeksiyasi va boshqa xizmatlar.

- **Koordinatsion markaz** – ma‘lumot almashuvini nazorat qiluvchi va sinxronlashtiruvchi modul [5].

- **Nazorat mexanizmi** – kelayotgan ma‘lumotlarni tahlil qilib, xatolik, takror yoki kechikish holatlarini aniqlaydi.

- **Optimallashtirish moduli** – tarmoqli yuklanishni kamaytirish va javob vaqtini qisqartirish uchun ustuvorlik asosida so‘rovlarni qayta ishlaydi [6].

**3. Matematik modeli.** Faraz qilaylik, bizda 3 ta asosiy oqim bor:

$$F = \{f_1(t), f_2(t), f_3(t)\}. \quad (1)$$

Bu yerda  $f_1(t)$  -korxonalar oqimi;  $f_2(t)$  -bank oqimi;  $f_3(t)$  -audit oqimi.

Har bir oqimning **maqsadli qiymati** oldindan belgilanadi:

$$T = \{t_1 = 40, t_2 = 40, t_3 = 20\}. \quad (2)$$

**4. Xatolik funksiyasi. Har bir oqim uchun xatolik:**

$$e_i(t) = t_i - f_i(t). \quad (3)$$

**5. Koordinatsion ta‘sir funksiyasi.** Koordinatsion boshqaruv shunday ishlaydi:

- Agar bir oqim ortib ketsa, boshqalar kamayadi (balans saqlanadi) [7];

- Barqarorlik sharti:

$$f_1 + f_2 + f_3 = 100. \quad (4)$$

**6. Dinamik yangilanish tenglamalari**

Har bir vaqt oralig‘ida oqimlar yangilanadi:

$$\begin{cases} f_1(t+1) = f_1(t) + k_1 \cdot e_1(t) - \alpha(f_2 - t_2) \\ f_2(t+1) = f_2(t) + k_2 \cdot e_2(t) - \alpha(f_1 - t_1) \\ f_3(t+1) = f_3(t) + k_3 \cdot e_3(t) \end{cases} \quad (5)$$

bu yerda  $k_i$  - har bir oqim uchun o‘rganish (moslashuv) koeffitsiyenti;  $\alpha$  - koordinatsion ta‘sir darajasi (ya‘ni oqimlar bir-biriga qanchalik ta‘sir qiladi) [8].

**7. Koordinatsion boshqaruv algoritmi.**

**a) Koordinatsion boshqaruv.** Boshlang‘ich oqim qiymatlarini belgilash.

$$e_i = t_i - f_i \quad (6)$$

- Har bir oqim uchun xatolikni hisoblash:

- Har bir oqimni koordinatsion model bo'yicha yangilash.
- Balansni tekshirish va 100 ga normallashtirish.
- Jarayon barqarorlashgunga qadar (xatolik  $< \varepsilon$ ) davom ettirish.

**b) Koordinatsion boshqaruvsiz model.** Bu holda oqimlar o'zaro ta'sir qilmaydi, shuning uchun tizim balansga kelmasligi yoki sekin barqarorlashishi mumkin:

$$f_1(t+1) = f_1(t) + k_1 \cdot e_1(t). \quad (7)$$

Oddiy soliq tizimi statik va sekin, koordinatsion algoritmi esa dinamik va moslashuvchan [9].

Bizning algoritmning ustunligi – oqimlarni balanslab, tezkor va sinxron ishlashni ta'minlashi (1-rasm, 2-rasm).

### Natija

```
# Natijalarni saqlash
history = []


for t in range(steps):
    # boshqaruv signali U = k * (X_target - X)
    U = [k * (X_target[i] - X[i]) for i in range(3)]

    # yangi oqimlarni hisoblash (soddalashtirilgan model)
    X = [X[i] + U[i] for i in range(3)]


    # natijani jadvalga yozish
    history.append((t, X[0], X[1], X[2]))

# Natijalarni chiqarish
print("Qadam | Bank->Soliq | Korxonaga->Soliq | Audit->Soliq")
for h in history:
    print(f"{h[0]:5d} | {h[1]:12.2f} | {h[2]:14.2f} | {h[3]:12.2f}")
```

1-rasm. Ishlab chiqilgan algoritm



2-rasm. Koordinatsion boshqaruv algoritmi natijasi



3-rasm. Oddiy koordinatsion boshqaruvsiz soliq tizimining ishlashi

• Oddiy koordinatsion boshqaruvsiz soliq tizimida oqimlar tartibsiz o'zgaradi, muvozanatga kelmaydi. Bank oqimi pasayishi mumkin, korxonada oqimi sekin ko'tariladi, audit oqimi esa o'zgarishsiz qoladi (3-rasm).

• Koordinatsion boshqaruv modelida esa oqimlar asta-sekin maqsadli qiymatlarga yaqinlashadi. Tizim barqaror bo'ladi (4-rasm).

### Muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, soliq tizimida qo'llanilayotgan an'anaviy (koordinatsiyasiz) boshqaruv modeli ko'p hollarda ma'lumotlar almashinuvi jarayonida kechikishlar, takroriy ma'lumotlar oqimi va resurslarning nomutanosib taqsimlanishiga olib keladi. Bunday sharoitda turli bo'limlar o'rtasida qaror qabul qilish jarayoni izchillikni yo'qotadi, bu esa tizim samaradorligini pasaytiradi. Shunga qarshi tarzda, taklif etilgan koordinatsion boshqaruv modeli boshqaruv darajalari o'rtasida vertikal va gorizontal axborot almashinuvini muvofiqlashtirish orqali tizimning ichki barqarorligini oshiradi. Model yordamida soliq ma'lumotlari yagona axborot bazasida qayta ishlanadi va ularning o'zaro bog'liqligi algoritmik asosda tahlil qilinadi (jadval, 5-rasm).

Taqqoslash natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

### Modellar tahlili

| Ko'rsatkichlar                | Koordinatsiyasiz model      | Koordinatsion boshqaruv modeli           |
|-------------------------------|-----------------------------|--|
| Ma'lumot almashinuvi tezligi  | Past (fragmentar)           | Yuqori (markazlashgan)                   |
| Qaror qabul qilish jarayoni   | Sekin, bo'limlarga bog'liq  | Avtomatlashtirilgan, muvofiqlashtirilgan |
| Ma'lumotlarning ishonchliligi | Takroriy va xatolarga moyil | Yagona manbadan tasdiqlangan             |
| Resurslardan foydalanish      | Nomutanosib                 | Optimal taqsimlangan                     |
| Tizim moslashuvchanligi       | Past                        | Dinamik, o'zgarishlarga mos              |
| Boshqaruv samaradorligi       | 60–70%                      | 85–95% (model natijalariga ko'ra)        |

| Iteratsiya | Korxonada | Bank  | Audit |
|------------|-----------|-------|-------|
| 0          | 30.00     | 50.00 | 20.00 |
| 1          | 31.00     | 49.00 | 20.00 |
| 2          | 31.90     | 48.10 | 20.00 |
| 3          | 32.71     | 47.29 | 20.00 |
| 4          | 33.44     | 46.56 | 20.00 |
| 5          | 34.10     | 45.90 | 20.00 |
| 6          | 34.69     | 45.31 | 20.00 |
| 7          | 35.22     | 44.78 | 20.00 |
| 8          | 35.70     | 44.30 | 20.00 |
| 9          | 36.13     | 43.87 | 20.00 |
| 10         | 36.51     | 43.49 | 20.00 |
| 11         | 36.86     | 43.14 | 20.00 |
| 12         | 37.18     | 42.82 | 20.00 |
| 13         | 37.46     | 42.54 | 20.00 |
| 14         | 37.71     | 42.29 | 20.00 |
| 15         | 37.94     | 42.06 | 20.00 |
| 16         | 38.15     | 41.85 | 20.00 |

4-rasm. Oddiy tizim

| Qadam | Bank->Soliq | Korxonada->Soliq | Audit->Soliq |
|-------|-------------|------------------|--------------|
| 0     | 47.00       | 33.00            | 20.00        |
| 1     | 44.90       | 35.10            | 20.00        |
| 2     | 43.43       | 36.57            | 20.00        |
| 3     | 42.40       | 37.60            | 20.00        |
| 4     | 41.68       | 38.32            | 20.00        |
| 5     | 41.18       | 38.82            | 20.00        |
| 6     | 40.82       | 39.18            | 20.00        |
| 7     | 40.58       | 39.42            | 20.00        |
| 8     | 40.40       | 39.60            | 20.00        |
| 9     | 40.28       | 39.72            | 20.00        |

5-rasm. Koordinatsion boshqaruvli tizim

Bank oqimi 50 dan 40 ga pasaymoqda, Korxonada oqimi 30 dan 40 ga ko'tarilmoqda, Audit oqimi esa 20 da barqaror qolmoqda.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalariga ko'ra, soliq tizimida axborot almashinuvi va boshqaruv jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun **koordinatsion boshqaruv modeli** muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Ushbu model boshqaruv darajalari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni algoritmik tarzda muvofiqlashtirish orqali tizimda

**barqaror, sinxron va ishonchli axborot oqimini** ta'minlaydi. An'anaviy (koordinatsiyasiz) boshqaruv modelida kuzatiladigan ma'lumotlarning takrorlanishi, kechikishlar va nomutanosib resurs taqsimoti muammolari koordinatsion yondashuvda **optimallashtirilgan boshqaruv algoritmlari** orqali bartaraf etiladi.

Kelgusida modelni ko'p agentli tizimlar, blokcheyn asosidagi verifikatsiya va sun'iy intellekt yordamida optimallashtirish yo'nalishlarida kengaytirish rejalashtirilmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov S. Soliq tizimida boshqaruv va koordinatsiya. Toshkent: Soliq va moliya nashriyoti, 2023 y. 15–25 b.
2. Smith J. Implementing Tax Coordination // Journal of Tax Policy. 1999 y. №10(3). 102–107 b.
3. Toshpulatov A. Soliq tizimida koordinatsiya va integratsiya. Toshkent: Moliya akademiyasi nashriyoti, 2024 y. 45–55 b.
4. Blaine G. Saito. Context, Purpose and Coordination in Taxation // AQSH da Connecticut Law Review jurnali. Vol. 55. 2022. N.2. – 375.
5. Brown R. Tax Coordination: The Importance of Institutions. Public Finance Quarterly, 2002 y. 143–149 b.
6. Wilson K. Tax Administration Reform Project in Uzbekistan. World Bank Report. 2018 y. 10 – 20 b.
7. Raximova D. Soliq tizimida xalqaro tajriba va O'zbekistonga tatbiqi. – T.: Universitet nashriyoti, 2025. 75–85 b.
8. Bektemirov J. Soliq tizimida boshqaruv va nazorat mexanizmlari. – T.: Iqtisodiyot nashriyoti, 2022. 30–40 b.
9. Hakim o'g'li K. Soliq nazorati samaradorligini oshirish usullari. CAJITMF jurnali, 2025 y. 15–22 b.
10. Ergashev N. Soliq tizimida raqamli texnologiyalar va ularning boshqaruvga ta'siri. – T.: Axborot texnologiyalari nashriyoti, 2023. 60–70 b.
11. Davis M. Tax-Planning vs. Coordination: The Dual Role of Internal Capital Allocation // Corporate Tax Journal, 2020 y. 162–168 b.
12. Bohodirovna A. D. Xalqaro soliq boshqaruvi siyosatlarini. IJMEF jurnali. 2023. 30–35 b.
13. Gadoev E.F., Toshmatov Sh., Koike H., Boymurodov S., Norboyev N., & Adjurayev A. Soliq yig'ish va uning to'lanishi. – T.: Soliq akademiyasi nashriyoti, 2010. 1–68 b.
14. Kasimova N. Soliq ma'muriyatini takomillashtirish: O'zbekiston tajribasi // Yevropa iqtisodiyoti, moliya va biznes rivojlanishi jurnali. 2024 y. 47–55 b.

Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi  
Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni  
rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti

10.10.2025-y.  
qabul qilingan

## MEXANIK ISHLOV BERISH TEXNOLOGIK TIZIMINING PARAMETRLARINI ANIQLASH VA BAHOLASH

Ushbu maqolada bikrligi kam bo'lgan yuqori aniqlikdagi vallarga mexanik ishlov berish texnologik tizimini modellashtirish va boshqarish masalalari keltirilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi elastik deformatsiyalangan holatda ishlov berish aniqligini ta'minlovchi matematik modelni ishlab chiqishdan iborat. Ishda kesish parametrlari, elastik deformatsiyalar va qo'shimcha boshqaruv ta'sirlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aks ettiruvchi texnologik tizimning matematik modeli taklif etilgan. Ishlab chiqilgan model kam bikrlikli detallarga ishlov berish texnologik jarayonlarini optimallashtirish va ularning samaradorligini oshirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** detal, model, texnologik tizim, elastik deformatsiya, simmetriya, bikrlik, val, kesish parametrlari, barqaror rejim, adaptiv boshqaruv.

С.Н. Джумаев

### Определение и оценка параметров технологической системы механической обработки

В данной статье рассматриваются вопросы моделирования и управления технологической системой механической обработки высокоточных валов малой жесткости. Основной целью исследования является разработка математической модели, обеспечивающей точность обработки в упругодеформированном состоянии. Предлагается математическая модель технологической системы, отражающая взаимосвязь между параметрами резания, упругими деформациями и дополнительными управляющими воздействиями. Разработанная модель служит теоретической основой для оптимизации технологических процессов обработки деталей малой жесткости и повышения их эффективности.

**Ключевые слова:** деталь, модель, технологическая система, упругая деформация, симметрия, жесткость, вал, параметры резания, устойчивый режим, адаптивное управление.

S.N. Djumaev

### Determination and evaluation of the parameters of the technological system of mechanical processing

This article presents issues of modeling and controlling the technological system for mechanical processing of high-precision low-rigidity shafts. The main objective of the research is to develop a mathematical model that ensures machining accuracy in the elastically deformed state. The work proposes a mathematical model of the technological system that reflects the relationship between cutting parameters, elastic deformations, and additional control actions. The developed model serves as a theoretical basis for optimizing the technological processes of processing low-rigidity parts and increasing their efficiency.

**Keywords:** part, model, technological system, elastic deformation, symmetry, stiffness, shaft, cutting parameters, stable mode, adaptive control.

**Kirish.** Mexanik ishlov berish texnologik tizimlarining (TT) dinamikasi bo'yicha zamonaviy tadqiqotlarda barqaror rejimlarda matematik modelni ishlab chiqishga o'tish tizimli tahlilning hal qiluvchi bosqichi hisoblanadi. Bu o'tish "dastgoh-asbob-detal" bo'g'inlarining barqaror o'zaro ta'siri qonuniyatlarini aniqlash va xomashyoning elastik deformatsiyalangan holati sharoitida ishlov berish aniqligini hamda sifatini belgilovchi parametrlarni aniqlash zarurati tufayli yuzaga keladi.


Bikrligi kam bo'lgan yuqori aniqlikdagi vallarga ishlov berish texnologik tizimini boshqarishda qo'llaniladigan matematik modellar jarayonlarni optimallashtirish va ushbu tizimning samaradorligini oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu modellar materiallarning elastik deformatsiyalarini hisobga olgan holda ularning xatti-harakatlarini bashorat qilish imkonini beradi, bu esa detallarga aniq ishlov berishda muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Muayyan model turini tanlash masalasi faqatgina mustahkamlash usuli va modelni qurish, parametrik identifikatsiyalash hamda imitatsion modelda olingan natijalarning eksperimental ma'lumotlarga yaqinligini tahlil qilish bo'yicha yakuniy konstruktiv qaror qabul qilingandan so'ng hal etilishi mumkin. Ushbu usullarni birlashtirish natijasida kam birk vallarga ishlov berish texnologik jarayonining turli jihatlarini aks ettiruvchi mukammal raqamli modellarni yaratish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa murakkab ishlov berish jarayonlarini modellashtirish paytida yanada aniqroq va haqiqatga yaqinroq natijalar olishga imkon beradi [2].

**Valning barqaror rejimlarda tokarlik ishlov berishning texnologik tizimini modellashtirish.** Real sharoitlarda ishlov berish kesishning barqaror rejimlarida amalga oshiriladi. Bunda o'tish jarayonlarining ta'siri (kiritish, siqish, asbobni chiqarish) ikkinchi darajali bo'lib qoladi. Yuzaning shakli, o'lchami va sifatini belgilovchi kuchlar, deformatsiyalar va tezliklar balansi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi [3].

Shu sababli, aynan barqarorlashgan rejim tizimni matematik tasvirlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi va empirik bog'liqliklardan barqaror holatning tahliliy tenglamalariga o'tish imkonini beradi.

O'qqa nisbatan simmetrik bo'lgan egiluvchan valga ishlov berish jarayonining matematik modelini strukturaviy identifikatsiyalash masalasi ko'rinishida tasavvur qilish mumkin. Bunday masalaning asosiy maqsadi yetarlicha sodda, ammo haqiqatga mos keladigan modelni yaratishdir. Ushbu vazifa doirasida bir tomondan, jarayonning fizik-mexanik xususiyatlari, texnologik tizim elementlari o'rtasidagi aloqa turlari va parametrlari haqidagi dastlabki ma'lumotlarni hisobga olish zarur. Boshqa tomondan esa, ishlov berishning aniqlik ko'rsatkichlariga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlash talab etiladi.



1-rasm. Strukturaviy identifikatsiyalash sxemasi

Jarayonning aniqligiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillar sifatida detalning geometrik va elastik xususiyatlari, mahkamlash va bazalash shartlari, hamda kesuvchi asbobning kuch ta'siri ko'rib chiqiladi. Materialning geometrik parametrlari va mexanik xossalari (elastiklik moduli, Puasson koeffitsiyenti) yuzaga keladigan elastik deformatsiyalarning xarakteri va miqdorini belgilaydi.

Strukturaviy identifikatsiya jarayonida "moslama-asbob-detal" elementining dinamik o'zaro ta'siri hisobga olinadi (1-rasm). Chunki bu jarayonning barqarorligi va aniqligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Muhim jihat shundaki, statsionar sharoitlar va kuch ta'sirining davriyligini formallashtirish orqali matematik tavsifni soddalashtirish mumkin.

Xususan, bu tizimning qattqlik va dempferlash kabi dinamik parametrlarining detal holatiga o'zaro ta'sirini baholashni hamda belgilangan ishlov berish rejimlarida texnologik tizimning umumiy barqarorligini tahlil qilishni nazarda tutadi.

Detalni mahkamlash shartlarini aniqlash ham muhim jihat hisoblanadi. Bu shartlarga bazalash turi, mahkamlash qattqligi va tayanch nuqtalarining joylashuv

konfiguratsiyasi kiradi. Aniq mahkamlash sharoitlariga qarab, modelda elastik yoki mutlaq qattiq bog‘lanishlar qo‘llaniladi.

Keyingi bosqich elastik deformatsiyalarni modellashtirishning mos usulini tanlashdir. Eng keng tarqalgan yondashuv chekli elementlar usuli (ChEU) dan foydalanishdir, ammo detalning geometriyasi nisbatan sodda va deformatsiyalar ahamiyatsiz bo‘lgan hollarda analitik yoki yarim analitik usullarni qo‘llash mumkin.

Modelni qurishda detal bilan kesuvchi asbob orasidagi kuch o‘zaro ta‘siriga alohida e‘tibor beriladi. Bu yerda kesish rejimlari - tezlik, surish, kesish chuqurligi, kesuvchi qirraning shakli va holatiga bog‘liq bo‘lgan kesish kuchlarining kattaligi va xarakterini baholash muhimdir. Bunda ishlov berish jarayonida keskichning ta‘sir etish davriyligini hisobga olish zarur.

Quyida qabul qilingan farazlarni hisobga olgan holda tokarlik ishlovi sharoitida masalaning formallashtirilgan matematik qo‘yilishi keltirilgan.

Tokarlik ishlov berish texnologik tizimining ishlashini fizik-matematik modellashtirish nuqtayi nazaridan kichik tizimlar - dastgoh, asbob va xomashyo o‘rtasidagi kuch, kinematik va energetik bog‘lanishlar majmuasi orqali tavsiflash mumkin.

Uskunalarining aniqlik ishonchligini ta‘minlash uchun ijrochi elementlar (keskich, shpindel, lyunetlar va boshqalar) berilgan fazoviy holatni yoki harakat yo‘nalishini egallashi lozim. Tizimning chiqish koordinatalari elastik deformatsiyalar  $y(t)$  bo‘lib, ular asbob va detal holatining o‘zgarishini belgilaydi. Bu deformatsiyalar ishlov berilgan detal  $Y(t) = f(y(t))$  yuzasining shakli, diametri, g‘adir-budurligi va to‘lqinsimonligidagi xatoliklarga ta‘sir ko‘rsatadi.

Boshqaruvchi ta‘sirlar vektori kirish koordinatalari sifatida xizmat qiladi:

$$\vec{u}(t) = \{n(t), v_f(t), \alpha(t)\}, \quad (1)$$

bunda  $n$  – shpindelning aylanish tezligi,  $v_f(t)$  – surish tezliklari,  $\alpha(t)$  esa asbobni o‘rnatish va yo‘naltirish burchagini ifodalaydi.

Bu ta‘sirlar natijasida shakl berish shartlarini belgilaydigan texnologik o‘zgaruvchilar vektori shakllanadi:

$$\vec{Y}(t) = \{V(t), S(t), t, y_v(t)\}, \quad (2)$$

bunda  $V(t)$  – kesishning oniy tezligi;  $S(t)$  – bir aylanishga to‘g‘ri keladigan uzatma;  $t$  – jarayonning joriy vaqti;  $y_v(t)$  – ishlov berish jarayonida tayyorlama o‘qining elastik deformatsiyasi.

Shunday qilib, elastik-deformatsiyalangan holatdagi texnologik tizimning matematik modeli umumiy ko‘rinishda quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$\dot{Y}(t) = Ax(t) + Bu(t) + Df(t), \quad y(t) = Cx(t), \quad (3)$$

bunda  $Y(t)$  – holat vektori (elastik deformatsiyalar, tebranishlar, asbob va tayyorlamaning og‘ishi);  $u(t)$  – boshqaruv ta‘sirlari vektori (tezliklar, kesish kuchi, cho‘zuvchi kuch);  $f(t)$  – g‘alayonlanish vektori (kesish kuchlari, issiqlik va tebranish ta‘sirlari);  $A, B, C, D$  – identifikatsiya va tajribalar asosida aniqlanadigan dinamik tizim parametrlari matritsalaridir.


$X$  o‘qi bilan mos keladigan o‘qqa ega bo‘lgan val (detal) ko‘rib chiqiladi. Tayyorlamaning uzunligi  $L$  ga teng bo‘lib,  $x$  koordinatasi oldingi babkadan ( $x = 0$ ) orqa babkagacha ( $x = L$ ) o‘lchanadi. Detalning radial yo‘nalishda  $w(x)$  kattalikka egilishga qodir ekanligini taxmin qilamiz va buni izlanayotgan funksiya sifatida qabul qilamiz.

Barqaror (statsionar) sharoitlarda o'zgarmas kesish kuchlari va o'q bo'yicha  $P$  yuklanish ta'sirida, kichik deformatsiyalar holatida, detalning elastik chizig'ini bo'ylama kuchni inobatga olgan holda Eyle-Bernulli differensial tenglamasi yordamida ifodalash mumkin:

$$EI \frac{d^4 y}{dx^4} + F_x \frac{d^2 y}{dx^2} = q(x), \quad x \in [0, L], \quad (4)$$

bunda  $y(x)$  – valning radial egilishi;  $E$  – detal materialining elastiklik moduli;  $I$  – detalning ko'ndalang kesimi neytral o'qqa nisbatan inersiya momenti;  $F_x$  – orqa babka, mahkamlash elementlari va boshqalar hosil qiladigan o'q bo'yab cho'zuvchi kuch;  $q(x)$  – ekvivalent taqsimlangan ko'ndalang yuk (agar kuch ta'siri chegaraviy shartlar yoki to'plangan kuchlar orqali modellashtiriladigan bo'lsa, 0 ga teng bo'ladi).

Detailning barcha  $E, I, P$  parametrlari hamda shakli uning uzunligi bo'yab o'zgarmas (yoki qismlar bo'yicha o'zgarmas) deb hisoblanadi.



2-rasm. Markaziy cho'zilish (siqilish) holatida detalning mahkamlanish sxemasi

Soddalashtirilgan holda, oldingi babka valning boshlanish qismini qattiq mahkamlaydi, orqa babka esa o'q bo'yicha ta'sir ko'rsatib, tayanch vazifasini bajaradi deb faraz qilinadi. Tipik holat (chap tomonda qattiq mahkamlash va o'ng tomonda sharnirli tayanch - markaziy cho'zilish misolida) quyidagicha belgilanishi mumkin:

I-qism uchun (oldingi babka,  $x = 0$ , mahkamlangan joy):

$$y(0) = 0, \quad \left. \frac{dy}{dx} \right|_{x=0} = 0.$$

II qism uchun (orqa babka,  $x = L$ , momentsiz tayanch):

$$EI \left. \frac{d^2 y}{dx^2} \right|_{x=L} = 0, \quad EI \left. \frac{d^3 y}{dx^3} \right|_{x=L} + F_x \left. \frac{dy}{dx} \right|_{x=L} = 0.$$

Haqiqiy mahkamlash turiga qarab, bu shartlar o'zgarishi mumkin. Masalan, orqa babkada  $X$  o'qi bo'yab siljish imkoniyatisiz qattiqroq qisish bo'lsa, vaziyat boshqacha bo'lishi mumkin va hokazo.

Shunday qilib, masalaning matematik qo'yilishi to'rtinchi tartibli chiziqli differensial tenglama uchun chegaraviy masalani yechishga keltiriladi:

$$EI \frac{d^4 y}{dx^4} + F_x \frac{d^2 y}{dx^2} = 0, \quad x \in (0, L); \quad (5)$$

Chegaraviy shartlar quyidagicha:

$$y(0) = 0, \quad \left. \frac{dy}{dx} \right|_{x=0} = 0, \quad x = 0;$$

$$EI \left. \frac{d^2 y}{dx^2} \right|_{x=L} = 0, \quad EI \left. \frac{d^3 y}{dx^3} \right|_{x=L} + F_x \left. \frac{dy}{dx} \right|_{x=L} = 0. \quad (6)$$

Farazlarga ko'ra, detalning silindriklikdan chetlanishi tegishli kesimdagi egilish miqdoriga mutanosib deb qabul qilinadi. Shaklning mahalliy xatosi (berilgan radiusdan og'ish)  $e(x)$  bilan belgilansin. U holda:

$$e(x) = k \cdot y(x), \quad (7)$$

bu yerda  $k$  – mutanosiblik koeffitsiyenti (geometriya va o‘lchash usuliga bog‘liq). Shaki xatosini minimallashtirish masalasi amalda  $0 \leq x \leq L$  oraliqda  $|y(x)|$  ning maksimal qiymatini cheklashga keltiriladi.

Statsionar jarayon uchun boshlang‘ich shartlar (dinamik qo‘yilishga xos bo‘lgan) soddalashtirilishi mumkin. Asbobning “tegish” payti va taranglik hosil bo‘lish vaqti faqatgina kuch ta’sirining dastlabki darajasini belgilaydi. Biroq barqarorlashgan statsionar model uchun ko‘p hollarda chegaraviy shartlar bilan ishlashning o‘zi yetarli hisoblanadi.

Ko‘pincha, kesish kuchlari keskich sohasida mahalliy tarzda qo‘llanilganda,  $q(x)$  o‘rniga kontakt nuqtasidagi moment yoki ko‘ndalang kuch uchun tegishli chegaraviy shartlardan foydalaniladi. Xuddi shunday, valni bir necha qismga bo‘lib, tutashtirish shartlarini qo‘llagan holda, har bir qism uchun o‘xshash tenglamalarni yozish mumkin.

Valning ikki qismga bo‘linganligini qabul qilamiz:

I qism:  $0 \leq x \leq a$

II qism:  $a \leq x \leq L$

Har bir qismda o‘ziga xos egilish funksiyasini kiritamiz:

$$y_I(x), x \in [0, a]; \quad y_{II}(x), x \in [a, L].$$

Barqaror (deyarli statik) sharoitlarda har bir uchastka uchun  $F_x$  o‘q kuchiga ega bo‘lgan to‘rtinchi tartibli differensial tenglamadan foydalaniladi:

$$\begin{cases} EI \frac{d^4 y_I}{dx^4}(x) + F_x \frac{d^2 y_I}{dx^2}(x) = 0, & 0 \leq x \leq a, \\ EI \frac{d^4 y_{II}}{dx^4}(x) + F_x \frac{d^2 y_{II}}{dx^2}(x) = 0, & a \leq x \leq L. \end{cases} \quad (8)$$

bunda  $F_x$  – cho‘zilish kuchining o‘q bo‘yicha tashkil etuvchisi (masalan, orqa babkadan yoki agar u taranglik hosil qilsa, tsangali qisqichdan) bo‘lib, tarqalgan ko‘ndalang kuch  $q(x)$  yo‘q deb taxmin qilinadi va barcha “g‘alayonlar” yoki chegara shartlariga, yoki to‘plangan kuchlarga, yoki eguvchi momentga to‘g‘ri keladi.

Yechim ikkita funksiyaga bo‘linganligi sababli,  $x = a$  o‘tish nuqtasida bog‘lanish shartlari bajarilishi kerak.

Ko‘chishlarning (egilishlarning) uzluksizligi quyidagi ko‘rinishda:

$$y_I(a) = y_{II}(a).$$

Burilish burchaklarining uzluksizligi:  $y'_I(a) = y'_{II}(a)$

Shundan so‘ng, to‘plangan kuch omillari inobatga olinadi:

$x = a$  nuqtasidagi to‘plangan ko‘ndalang kuch  $Q_1$  (masalan, kesuvchi asbobdan hosil bo‘lgan) ichki ko‘ndalang kuchda uzilish paydo qiladi.

Eyler-Bernulli balkasining klassik nazariyasiga ko‘ra,  $F_x$  o‘q kuchini inobatga olgan holda, ichki ko‘ndalang kuch quyidagicha ifodalanadi:

$$F(x) = -EI \frac{d^3 y}{dx^3} - F \frac{dy}{dx}.$$

Shu sababli, bu kuchning  $x = a$  nuqtasidagi "sakrash" sharti:

$$[F_{II}(a) - F_I(a)] = Q_1 \Rightarrow -EI[y''_{II}(a) - y''_I(a)] - F_x[y'_{II}(a) - y'_I(a)] = Q_1.$$

$x = a$  nuqtasida joylashgan markazlashgan eguvchi moment  $M_1$  ichki eguvchi moment  $M(x)$  da uzilish hosil qiladi. Klassik to‘sin nazariyasiga asosan:

$$M(x) = -EI y''(x),$$

Bunday holda, momentlarning "sakrash" sharti quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$$[M_{II}(a) - M_I(a)] = M_1 \Rightarrow -EI[y''_{II}(a) - y''_I(a)] = M_1.$$

Shunday qilib, to'plangan kuchlar va momentlar mavjud bo'lgan holda ikki qismga ajratilgan val uchun masalaning to'liq qo'yilishi quyidagi ko'rinishni oladi:

$$EI \frac{d^4 y_i}{dx^4}(x) + F_x \frac{d^2 y_i}{dx^2}(x) = 0, \quad i \in \{1, 2\}. \quad (9)$$

Chegaraviy shartlarda:  $x = 0$  va  $x = L$  bo'lganda, mahkamlash sxemasi va  $x = a$  nuqtadagi tutashish shartiga bog'liq holda  $y$  va  $y'$  ning uzluksizligi,  $M_1$  moment ta'sirida  $y''$  ning sakrashi hamda  $Q_1$  ko'ndalang kuch ta'sirida  $y'''$  ning sakrashi kuzatiladi.

Oldingi babkadagi mahkamlash joyidagi  $Q_0$ ,  $M_0$  ning, erkin uchidagi yoki orqa babkadagi  $F_x$  ning, shuningdek,  $P_{eg}$  (asbobdan ko'ndalang kuch) yoki  $M_1$  (kesuvchi asbobning o'q bo'yicha eksentrik ta'sir etuvchi kuch momenti) kattaliklarining aniq qiymatlarini qo'yib, masalani bir qiymatli hal qilish va tegishli ravishda birinchi hamda ikkinchi qismlarda egilish funksiyasi  $y_I(x)$  va  $y_{II}(x)$  ni olish mumkin.

O'qqa nisbatan simmetrik detalning bo'ylama-ko'ndalang egilishining boshlang'ich tenglamasi, o'q bo'ylab kuch ta'sir etgan holda, o'zgaras koeffitsiyentli 4-tartibli chiziqli bir jinsli differensial tenglama hisoblanadi. Shu sababli, uni yechish uchun quyidagi ko'rinishdagi almashtirishni qo'llaymiz:

$$y(x) = e^{rx},$$

bu yerda  $e$  – eksentrisitet, detalning silindrsimonlikdan chetlanishi;  $r$  – ishlov beriladigan detalning radiusi.

Boshlang'ich tenglamaga qo'yib, xarakteristik tenglamani hosil qilamiz:

$$EI r^4 + F_{x1} r^2 = 0 \Rightarrow r^2 (EI r^2 + F_{x1}) = 0.$$

Uning yechimlari quyidagilardir:

$$r_{1,2} = 0, \quad r_{3,4} = \pm \sqrt{-\frac{F_{x1}}{EI}} = \pm \alpha, \quad \text{bunda} \quad \alpha = \sqrt{-\frac{F_{x1}}{EI}}.$$

Bu yerda, siqilishdagi o'q bo'yicha kuch manfiy  $F_x < 0$  bo'lgani uchun (cho'zilish uchun musbat bo'ladi), ildiz ostidagi qiymat musbat bo'ladi va natijada  $\alpha$  ning haqiqiy qiymatin

(8) tenglamaning yechimini har bir qism uchun quyidagi ko'rinishda yozishimiz mumkin:

-  $0 \leq x \leq a$  bo'lganda, I uchastka uchun

$$y_1(x_1) = \frac{Q_0}{\alpha F_{x1}} sh(\alpha x_1) + \frac{M_0}{F_x} ch(\alpha x_1) - \frac{Q_0 x_1 + M_0}{F_x}; \quad (10)$$

-  $a \leq x \leq L$  bo'lganda, II uchastka uchun

$$y_2(x_2) = \frac{Q_0 ch(\alpha a) + M_0 \alpha sh(\alpha a) + P_{eg}}{\alpha P_x} sh(\alpha x_2) + \frac{Q_0 sh(\alpha a) + M_0 \alpha ch(\alpha a)}{\alpha P_{x1}} ch(\alpha x_2) - \frac{[Q_0 ch(\alpha a) + M_0 \alpha sh(\alpha a) + P_{eg}] x_2 + [Q_0 sh(\alpha a) + M_0 \alpha ch(\alpha a)]}{F_x} \quad (11)$$

Umumiy yechim quyidagi ko'rinishni oladi:

$$y(x) = A + Bx + Csh(\alpha x) + Dch(\alpha x), \quad (12)$$

bunda  $A, B, C, D$  – chiziqli ko‘chishlar (siljish, burilish burchagi) uchun mas‘ul bo‘lgan doimiy koeffitsiyentlar;  $sh(\alpha x)$ ,  $ch(\alpha x)$  – o‘q bo‘ylab cho‘zuvchi (siquvchi) kuch ta’siri natijasida detal o‘qi bo‘ylab deformatsiya va kuchlanishlar taqsimlanishining chiziqli bo‘lmagan xususiyatini ifodalovchi giperbolik hadlar hisoblanadi.

ABCD doimiy koeffitsiyentlari chegaraviy shartlardan, muvozanat shartlaridan va deformatsiyalarning o‘zaro mosligi shartlaridan aniqlanadi. Hisoblash metodikasi va olingan natijalar mazkur ishda batafsil ko‘rib chiqilgan [4].

Shunday qilib, cho‘zuvchi kuchlar va eguvchi momentlar ta’sirida elastik chiziqning umumiy tenglamasi yechimi topildi. Ishlov berish jarayonida valning turli qismlaridagi cho‘zuvchi kuchlar, eguvchi momentlar va egilishlar qiymatlari aniqlandi. Bu esa egiluvchan vallarga tokarlik ishlov berishda konstruktiv o‘lchamlar aniqligini oshirish imkonini beradi.

Taqdim etilgan matematik ifoda frezalash sharoitida bo‘ylama-ko‘ndalang egilishda o‘qqa nisbatan simmetrik bo‘lgan tayyorlama (val) ning elastik chiziqlarini aniqlash masalasini aks ettiradi. O‘q bo‘ylab yo‘nalgan kuchni va tegishli chegaraviy shartlarni hisobga olgan holda Eyler-Bernulli tenglamasi radial egilishlar  $y(x)$  ni hisoblash imkonini beradi, bu esa o‘z navbatida detal shaklining silindrligidan og‘ishini baholash imkonini yaratadi. Tenglamadagi giperbolik funksiyalar aynan o‘q bo‘ylab ta’sir etuvchi yukni (bu holda  $F_x$  kuchini) hisobga olish natijasida paydo bo‘ladi. Agar o‘q bo‘ylab ta’sir etuvchi kuch hisobga olinmasa, yechim pastroq darajali polinomlarga keltirilgan bo‘lardi.

Texnologik tizimning kirish va chiqish koordinatalari orasidagi bog‘lanish operator tenglamasi orqali ifodalanishi mumkin:

$$\vec{Y}(s) = \vec{G}(s)\vec{U}(s) + \vec{G}_B(s)\vec{F}(s), \quad (13)$$

bu yerda  $\vec{G}(s)$  – texnologik tizimning uzatish funksiyasi,  $\vec{G}_B(s)$  esa g‘alayonlantiruvchi ta’sirlarni uzatish funksiyasi hisoblanadi.

Ishlov berishning turg‘un rejimlarida va g‘alayonlanishning tor oralig‘ida elastik-deformatsiyalangan holatning chiziqli modelini qo‘llash mumkin:

$$m \cdot \ddot{y}(t) + b \cdot \dot{y}(t) + c \cdot y(t) = F_c(t) + F_d(t), \quad (14)$$

bu yerda  $m$  – tizimning ekvivalent massasi,  $b$  – so‘nish koeffitsiyenti,  $c$  – qattqlik,  $F_c(t)$  – kesish kuchlari,  $F_d(t)$  – qo‘shimcha tuzatuvchi kuchlar (masalan, cho‘zuvchi kuch) hisoblanadi.

Elastik deformatsiyalangan holatdagi texnologik tizimning yaratilgan matematik modeli kesish parametrlari, elastik deformatsiyalar va qo‘shimcha boshqaruv ta’sirlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aks ettiradi. Yuqorida bayon etilganlarga asoslanib, ko‘rib chiqilayotgan dinamik tizimlarning matematik modellarining chiqish o‘zgaruvchilari sifatida kesish kuchlari va texnologik tizimning elastik deformatsiyalari qabul qilinadi.

**Texnologik tizimni boshqarishni optimallashtirish mezonlarini shakllantirish va sintezlash metodikasini ishlab chiqish.** Tokarlik ishlov berish texnologik tizimining fizik-matematik modeli optimal boshqarish masalasini shakllantirishga imkon beradi. Olingan bog‘liqliklar elastik deformatsiyalangan holatdagi asbob, tayyorlama va dastgoh qismlari orasidagi o‘zaro dinamik ta’sirni aks ettiradi. Biroq, hatto tizim holatini aniq taqriblashtirish mumkin bo‘lsa-da, boshqaruv ta’sirlarining maqbul parametrlarini tanlamasdan, talab etiladigan ishlov berish aniqligiga erishib bo‘lmaydi.

Mexanik ishlov berish jarayonida egiluvchan vallarning elastik-deformatsiyalangan holatini boshqarish uchun optimallashtirish mezonlari va boshqaruv

ta'sirlarini sintezlashning rasmiy metodikasini ishlab chiqish zarur. Matematik modellar tahlili shuni ko'rsatdiki,  $l/d \geq 15 \dots 50$  nisbatga ega bo'lgan aylanma jismlar sinfi detallarining elastik egilishlarini eng kam darajaga tushirish uchun optimallashtirish masalasini quyidagicha qo'yish maqsadga muvofiq.

Tokarlik ishlov berish texnologik tizimining ishlashi jarayonida tayyorlamaning elastik deformatsiyalari miqdoriga asosiy ta'sirni materialning oldindan zo'riqtirilgan holatini hosil qiluvchi bo'ylama cho'zuvchi kuchlar  $F_x(t)$  va eksentrisitet  $e$  ko'rsatadi. Bu omillarning ta'siri bikrlilik  $c_v$  ning o'zgarishi va kuchlanishlarning qayta taqsimlanishida namoyon bo'ladi, bu esa ishlov berish zonasida detal egilishini samarali boshqarish imkonini beradi. Deformatsiya funksiyasi quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$$\delta(t) = f(F_c(t), F_x(t), c_v), \quad (15)$$

bunda  $F_c(t)$  – kesish kuchi,  $c_v$  esa tayyorlamaning ekvivalent bikrligi hisoblanadi. Shunday qilib, dastlabki taranglik  $F_x$  optimal boshqaruv vektoriga kiritiladi. Bu esa ruxsat etilgan kuchlanish holatini saqlagan holda valning egilishini eng kam darajaga tushiradi.

Ishlov berish aniqligini oshirish uchun qonuniyatlarni tavsiflashdan kesish kuchlari ta'sirida detalning egilishini eng kam darajaga tushiradigan boshqaruv ta'sirlarini optimallashtirishga o'tish zarur. Bunday holda, texnologik tizimni boshqarish masalalari geometrik va rejim parametrlarining funksiyalari sifatida rostlovchi ta'sirlar  $F_x$  – cho'zuvchi kuch va chiqish koordinatalari bo'yicha xatolar eksentrisitetining maqbul parametrlarini aniqlashga keltiriladi.

Optimallik mezoni sifatida ishlov berish jarayonida detalning elastik egilishini eng kam darajaga tushirish qabul qilingan bo'lib, bu matematik jihatdan quyidagicha ifodalanadi:

$$Y = \min_{F_{x1}, e} f(\alpha, L, P_{eg}, F_x, V, S, t, F_{x1}, e, a, X). \quad (16)$$


Boshqaruv parametrlari o'zgartirilganda, detal egilishining  $Y$  minimal qiymatini aniqlash maqsad qilingan. Modellashtirish ikki o'lchamli gradiyent qidirish usuli hamda dixotomiya usuli yordamida amalga oshirildi, bu esa optimal boshqaruv parametrlarini aniqlash imkonini beradi.

$Y$  maqsad funksiyasi cho'zilgan va egilgan sterjenning markaziy cho'zilishdagi egilishini ifodalovchi (9) model va 2-rasmdagi analitik bog'lanishlarga asoslangan holda tuzilgan. Ushbu model detalning uchlarini o'q bo'ylab siljish imkoniyati bilan qattiq mahkamlashni hamda mahkamlash nuqtasida eksentrisitet orqali boshqariladigan moment hosil qilishni inobatga oladi.

O'zgaruvchan parametrlarga uskunaning konstruktiv xususiyatlari, ishlov berilayotgan materialning mustahkamlik ko'rsatkichlari va jarayon kinematikasi bilan bog'liq bo'lgan  $U_i$  cheklovlar tizimi qo'llaniladi:

$$\begin{aligned} a \in \{0, L\}, X \in \{0, L\}, e \in \{0, 2d\} \\ F_{x1} \in \bar{\sigma} = \{(F_{x1}) : g_i(P_{x1}) \leq U_i\}, U_i \geq 0, i = \overline{1, n} \\ F_{x1} \leq K_p : F_{x1P} = K_p [\sigma_{H.P.}] \cdot F_p \end{aligned} \quad (17)$$

bu yerda  $F_{x1P}$  – materialning mustahkamlik chegarasi bilan aniqlanadigan cho'zilish kuchi;  $\sigma_{H.P.}$  – ruxsat etilgan cho'zilish kuchlanishlari;  $K_p$  – mustahkamlik zaxirasi koeffitsiyenti;  $F_p$  – tayyorlamaning ko'ndalang kesim yuzasining kritik qiymati.



2-rasm. To‘r usuli yordamida texnologik cheklovlarga ega bo‘lgan  $Y_{F_{x1},e}$  maqsad funksiyasining fazoviy reaksiya yuzasi

To‘rlar usulidan foydalangan holda o‘tkazilgan sonli modellashtirish (6) maqsad funksiyasining unimodal funksiyalar sinfiga mansub ekanligini ko‘rsatdi. Bu esa optimumni izlash masalasini sezilarli darajada soddalashtiradi.

Optimal boshqaruvni amalda qo‘llashning muhim xususiyati shundaki, ko‘pchilik texnologik holatlarda  $F$  ning global minimumiga erishish talab etilmaydi. Ishlov berish talab qilingan aniqlikni ta‘minlash uchun  $Y \leq Y_{set}$  tengsizligining bajarilishi yetarli shart hisoblanadi. Bu yerda  $Y_{set}$  – texnologik talablar bilan belgilangan egilishning mumkin bo‘lgan qiymatidir. 2-rasmda kesuvchi tekisliklar  $Y'_{set}$  va  $Y''_{set}$  ning turli qiymatlariga mos keladi. Bu tekisliklarning javob yuzasi bilan kesishish chiziqlari ruxsat etilgan yechimlar to‘plamini hosil qiladi. Ushbu to‘planning har qanday nuqtasi berilgan texnologik talablarga javob beradi [5].

**Xulosa.** Kesish parametrlari, elastik deformatsiyalar va qo‘shimcha boshqaruv ta‘sirleri orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aks ettiruvchi elastik deformatsiyalangan holatdagi texnologik tizimning matematik modeli ishlab chiqildi. Kesish kuchlari va oldindan zo‘riqtirishning ishlov berish aniqligiga ta‘sirini baholash imkonini beruvchi statik muvozanat va dinamika tenglamalari olindi. Holatlar fazosidagi modeldan foydalanish optimal va bashoratli boshqaruv usullarini qo‘llash imkoniyatini ta‘minlashi ko‘rsatib berildi. Qo‘shimcha cho‘zuvchi kuch kiritilishi egiluvchan vallarning bukilishini kompensatsiyalashni va jarayon barqarorligini oshirishni ta‘minlaydi. Elastik ko‘chishlar va elastik deformatsiyalangan holatni boshqarish aniqligining mezoni sifatida integral-kvadratik baholash hamda takomillashtirilgan integral-kvadratik baholashdan foydalanish orqali adaptiv boshqaruv tizimlarining tezkorligi va sifatini oshirish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Świć A., Gola A., Orynych O., Tucki K., Matijošius J. Technological Methods for Controlling the Elastic-Deformable State in Turning and Grinding Shafts of Low Stiffness // Materials. Vol. 15. 2022. No.15. P.5265. <https://doi.org/10.3390/ma15155265>.
2. Liu Y., Ma C., Gui H., Wang S. A digital twin-driven cutting force adaptive control approach for milling process // Journal of Intelligent Manufacturing. Vol. 35. 2023. P.2447–2462. <https://doi.org/10.1007/s10845-023-02193-2>.

3. Bobrovskii A.B., Drachev O.I., Gorshkov B.M. Machining of Keyways in Long Flexible Shafts // Russian Engineering Research. Vol. 40. No.5. 2020. P.363–366. <https://doi.org/10.3103/S1068798X20050056>.
4. Sulyukova L.F., Djumaev S.N., Avazov I., Muratov, L. Improving the processing accuracy of the puller shaft of the cotton harvesting machine controlling the dynamic system parameters // BIO Web of Conferences. 2024. № 105. P.040 – 03. <https://doi.org/10.1051/bioconf/202410504003>.
5. Сулюкова Л. Ф., Якубжанова Д. К., Джумаев С.Н. Построение динамических моделей технологических систем обработки нежестких осесимметричных деталей // Raqamli Transformatsiya va Sun'iy Intellekt ilmiy jurnali. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. Vol. 3. Issue 1. February 2025.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

15.10.2025- y.  
qabul qilingan

УДК: 662.997

**Б.С. РАСАХОДЖАЕВ, Ж.З. АХАДОВ, О.А. РИХСИБОЕВ, У.З. АХМАДЖОНОВ,  
Ж.Ж. ШОИМОВ, А.Р. ХАМДАМОВ, М.И. ШОЕРГАШЕВ, Д.Р. МАШРАБОВ**

### **РЕЗУЛЬТАТЫ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ СИСТЕМ ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЯ СОЛНЕЧНЫХ ТЕПЛИЦ С АВТОНОМНЫМИ ЭНЕРГОКОМПЛЕКСАМИ**

В статье представлены результаты экспериментальных исследований систем, энергоснабжения двух солнечных теплиц построенных на территории полигона Национального научно-исследовательского института возобновляемых источников энергии при Министерстве энергетики Республики Узбекистан. Каждая солнечная теплица имеет площадь по 100 кв. м. Для теплоснабжения теплиц сооружены две биогазовые установки емкостью 3 т каждая. Для электроснабжения установлена фотоэлектрическая станция с аккумуляторами энергии номинальной мощностью 5 кВт. Результаты исследований показывают, что по выходным показателям биогазовой установки и автономной фотоэлектрической станции с номинальной мощностью 5 кВт они способны обеспечить бесперебойное и эффективное автономное электроснабжение теплицы, в том числе и потребителей горных и сельских регионов, отдаленных от общей распределительной сети.

**Ключевые слова:** солнечная энергия, солнечная теплица, фотоэлектрическая станция, биогазовая установка, тепловая энергия, биогаз, эффективность.

**Б.С. Расаходжаев, Ж.З. Ахадов, О.А. Рихсибоев, У.З.Ахмаджонов,  
Ж.Ж. Шоимов, А.Р. Ҳамдамов, М.И. Шоергашев, Д.Р.Машрабов**

#### **Автоном энергия комплекслари эга қуёшли иссиқхоналар учун энергия таъминоти тизимларининг тажриба натижалари**

Ушбу мақолада экспериментал тадқиқотлар натижалари келтирилган. Ўзбекистон Республикаси Энергетика вазирлиги ҳузуридаги Қайта тикланувчи энергия манбалари миллий илмий-тадқиқот институтида умумий майдони 200 квадрат метр бўлган иккита қуёшли иссиқхона қурилган. Ҳар бир қуёшли иссиқхонанинг майдони 100 квадрат метрни ташкил қилади. Иссиқхоналарни иссиқлик билан таъминлаш учун ҳар бири 3 тонна қувватга эга иккита биогаз қурилмаси қурилган. Электр энергиясини таъминлаш учун номинал қуввати 5 кВт бўлган энергия сақлаш мосламасига эга фотоэлектр станцияси ўрнатилган. Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, биогаз қурилмаси ва номинал қуввати 5 кВт бўлган автоном фотоэлектр станциясининг чиқиш кўрсаткичлари иссиқхонани, шу жумладан, умумий тақсимлаш тармоғидан узоқда жойлашган тоғли ва қишлоқ ҳудудларидаги истеъмолчиларни узлуксиз ва самарали автоном энергия билан таъминлаш учун етарли.

**Калит сўзлар:** қуёш энергияси, қуёш иссиқхонаси, фотоэлектр станцияси, биогаз қурилмаси, иссиқлик энергияси, биогаз, самарадорлик.

**Experimental results of power supply systems for solar greenhouses with autonomous energy complexes**

This paper presents the results of experimental research. Two solar greenhouses with a total area of 200 square meters were constructed at the National Research Institute of Renewable Energy under the Ministry of Energy of the Republic of Uzbekistan. Each solar greenhouse has an area of 100 square meters. Two biogas plants, each with a capacity of 3 tons, were built to supply heat to the greenhouses. A photovoltaic station with energy storage with a nominal capacity of 5 kW was installed to supply electricity. The research results show that the output indicators of the biogas plant and the autonomous photovoltaic station with a nominal capacity of 5 kW are sufficient to ensure uninterrupted and efficient autonomous power supply to the greenhouse, including for consumers in mountainous and rural regions remote from the general distribution grid.

**Keywords:** solar energy, solar greenhouse, photovoltaic station, biogas plant, thermal energy, biogas, efficiency.

В настоящее время солнечные теплицы широко используются во многих странах для выращивания в холодное время года овощей, плодов, тропических растений, зелени, цветов и т.д., при этом во многих случаях в теплицах применяются аккумуляторы тепловой энергии для их обогрева в ночное время [1,2].

Одним из основных вопросов развития масштабов использования солнечных теплиц является разработка относительно дешевых и долговечных конструкций теплиц, позволяющих в то же время в первую очередь уменьшить расходы тепла на их отопление.

Основными проблемами создания и использования теплиц и в настоящее время являются: обеспечение необходимых температурно-влажностных режимов в теплицах в холодное время года; обеспечение минимальных затрат энергии на поддержание требуемых температурных режимов.

Предлагаются различные пути решения этих проблем. Первое – это уменьшение тепловых потерь самой теплицы: с двойным прозрачным слоем, заглубленные (траншейные), с теплоизоляцией стенок, с теплоотражающими экранами [3 – 5].

Из анализа этих работ следует, что исследования в области тепловых режимов необходимо рассмотреть с учетом нестационарного температурно-влажностного режима солнечных теплиц.

Одна из задач поддержания температур в теплицах — это тип подачи тепла в теплицу (лучистая, конвективная, комбинированная) [6 – 8].

Лучистая подача энергии наиболее экономична, однако, в основном, она поглощается растениями и прозрачными ограждениями, при этом связь с их температурами и температурой воздуха в теплице не рассмотрена, также не проведены оценки лучистых потерь через ограждения (пленочные, стеклянные). Больше распространение получили конвективные системы отопления радиаторного типа (в радиаторах прогоняется горячая вода), далее т. е., которые нагревают воздух в теплице и сами растения, а также прозрачные ограждения. В настоящее время оценка эффективности таких систем отопления требует разработки методик, учитывающих особенности влияния этих факторов на нестационарный тепловой режим теплицы.

На основе исследования развития технологии разработки профессором А.И. Исманжановым составлена классификация солнечных теплиц, отличающихся по различным признакам [9].

Сотрудниками Национального научно-исследовательского института возобновляемых источников энергии при Министерстве энергетики Республики Узбекистан на территории полигона построены две солнечные теплицы общей площадью 200 кв. м. Каждая солнечная теплица имеет площадь по 100 кв. м. Для теплоснабжения теплиц построены две биогазовые установки емкостью 3 т каждая. Для электроснабжения установлена фотоэлектрическая станция с аккумуляторами энергии номинальной мощностью 5 кВт.

Выбор наиболее распространенных установок возобновляемых источников энергии (ВИЭ) для создания автономного энергокомплекса и их схемы показаны на рис. 1.




Рис.1. Автономные энергокомплексы на базе ВИЭ и их схемы: *а* – автономная фотоэлектростанция для электроснабжения; *б* – биогазовая установка для газоснабжения отопительного котла; *в* – использования органических отходов, пеллет, для отопления

В целях обеспечения бесперебойного тепло- и энергоснабжения солнечных теплиц, построенных на территории полигона Национального научно-исследовательского института возобновляемых источников энергии, создан автономный энергетический комплекс на базе ВИЭ, состоящий из фотоэлектрической станции (ФЭС) с номинальной мощностью 5 кВт и экспериментальной биогазовой установки (БГУ). Схема автономной энергетической системы представлена на рис. 2.

Как видно из рис. 2, автономная энергоэффективная система для тепло- и энергоснабжения солнечных теплиц с хранением тепловой энергии состоит из следующих основных частей; котла с возможностью принимать три вида энергоресурсов, пеллета, биогаза и электроэнергии от фотоэлектрической станции. Имеются система капельного орошения с автоматической системой управления, система передачи Интернета, а также система передачи тепловой энергии, металлические регистры и трубопроводы, присоединенные к системе отопления.

Согласно международным и национальным стандартам, приготовлен субстрат. По существующим международным и национальным стандартам O'z DSt 2798:2017 «Нетрадиционные технологии. Энергетика биоотходов. Общие технические требования к биогазовым установкам» [10 – 13] представленная БГУ для полноценного эксперимента дополнена комплектующими – системой обогрева и мешалкой для перемешивания субстрата.




Рис.2. Автономная энергоэффективная система для тепло- и энергоснабжения солнечных теплиц с хранением тепловой энергии на основе технологий возобновляемых источников энергии

Установленные биогазовые установки предназначены для получения биогаза из органических веществ. По конструкции нами использованные биогазовые установки непосредственно располагаются в грунте. Для установки БГУ в грунте делается яма глубиной диаметром 3 м.

Соблюдая нормативные требования O'z DSt 2798:2017, на БГУ можно загружать 2/3 части, в среднем, до 90 % влажности субстрата. В среднем загружается в БГУ с размером диаметра 2.24 м от рабочего объема до 1.2 т органического сырья крупного рогатого скота (КРС). В целом в две БГУ можно загружать до 2.5 т субстрата и получить с двух БГУ в среднем 100 куб. м/месяц биогаза.

Результаты экспериментов БГУ, влияние температуры окружающей среды на расход биогаза, получаемой от БГУ, предназначенной для теплоснабжения солнечных теплиц, приведены на рис.3.

Как видно из рис. 3, в зависимости от температуры окружающей среды расход газа, получаемый от БГУ, можно регулировать, тем самым способствовать его экономии, и балансировке температуры внутри солнечных теплиц.

Таким образом, сооруженная нами БГУ, по конструкции имеющая шарообразную форму, полностью соответствует нормативным документам БГУ и вполне пригодна для получения биогаза от органического сырья. Согласно нормативным документам, в двух сооруженных нами БГУ в целом можно загружать до 2 т субстрата, органического сырья КРС и получить с двух БГУ в среднем 100 куб. м/сутки биогаза.




Рис. 3. Влияние температуры окружающей среды на расход газа, получаемого от БГУ, предназначенной для теплоснабжения солнечных теплиц

Для электроснабжения разработанных теплиц нами была сооружена фотоэлектрическая станция (ФЭС) с номинальной мощностью 5 кВт. Фотоэлектрическая станция установлена по адресу: Ташкентская область, Юкори Чирчик, Барданкул, 2А.

Общий вид ФЭС с хранением энергии с двух сторон и сооруженной на южной стороне солнечной теплицы приведен на рис. 4.



Рис.4. Общий вид ФЭС с хранением энергии (а) и солнечной теплицы (б)

Результаты экспериментов автономной ФЭС с системой хранения энергии представлены на рис. 5 и 6. Как установлено, в зависимости от времени года меняется выработка электроэнергии автономной ФЭС. При этом максимальная выработка электроэнергии автономной ФЭС приходится на такие месяцы, как июнь, июль и август.




Рис. 5. Средняя за сутки по месяцам (кВт·ч) выработка электроэнергии от ФЭС с номинальной мощностью 5 кВт




Рис. 6. Средняя за месяц (кВт·ч) выработка электроэнергии от ФЭС с номинальной мощностью 5 кВт

Таким образом, по выходным показателям нами собранная автономная ФЭС с номинальной мощностью 5 кВт способна обеспечивать бесперебойное и эффективное автономное электроснабжение теплицы, в том числе и потребителей горных и сельских регионов, отдаленных от общей распределительной сети.

**Выводы.** Проведенное исследование показывает, что нами сооруженная БГУ, по конструкции имеющая шарообразную форму, полностью соответствует нормативным документам БГУ и вполне пригодна для получения биогаза от органического сырья. Согласно нормативным документам, нами сооруженные две БГУ в целом можно загружать до 2 т субстрата, органического сырья КРС и получить с двух БГУ в среднем 100 куб. м/сутки биогаза.

Установленная автономная ФЭС с номинальной мощностью 5 кВт соответствует обеспечению бесперебойного и эффективного автономного электроснабжения теплицы, в том числе и потребителей горных и сельских регионов, отдаленных от общей распределительной сети.

### ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. IRENA Renewable energy statistics 2024, International Renewable Energy Agency, Abu Dhabi ([Link](#)), 2024.
2. Аллаев К.Р. Энергетика мира и Узбекистана. Ташкент: Молия, 2007. – 388 с.
3. Хайриддинов Б.Э. Блочная теплица. Ташкент: Фан, 1982. – 46 с.
4. Садыков Г.А., Вардиашвили А.Б. Гелиотеплицы и их тепловой расчет. Ташкент: Фан, 1977. – 79 с.
5. Вардиашвили А.Б. Теплообмен и гидродинамика в комбинированных теплицах с субстратом и аккумулярованием тепла. Ташкент: Фан, 1990. – 196с.
6. Раббимов Р.Т., Умаров Г.Я., Захидов Р.А. Аккумулярование солнечной энергии в песчано-гравийном грунте // Гелиотехника. 1971. №5. С.57 – 64.
7. Махкамов Х.Т., Хайриддинов Б.Э., Ким В.Д. Лимонарий углубленного типа с аккумулятором тепла // Гелиотехника. Ташкент, 2001. №1. С. 33 – 36.
8. Хайриддинов Б.Э., Махкамов Х.Т., Ким В.Д. Оптимизация конструкции гелиолимонария // Гелиотехника. Ташкент, 2000. №3. С. 30 – 35.
9. Исманжанов А.И., Мурзакулов Н.А. Энергоэкономные гелиотеплицы. Ош: Изд. «Ризван», 2018. – 136 с.
10. O‘z DSt 2798:2017 «Нетрадиционные технологии. Энергетика Биоотходов. Общие технические требования к биогазовым установкам».
11. Зайнутдинова Х. К. Использование солнечной энергии в Узбекистане: вопросы рынков и маркетинга. Ташкент: Фан, 2015. – 333 с.
12. Теплица промышленная Фермер-11,5 // URL: <http://orel.zagorod.shop>> shop/teplitsy/dlya fermerov (дата обращения 11.05.2021).
13. Разаходжаев Б.С., Ахмаджонов У.З. и др. Теплица. FAP 01450. Патент на полезную модель от 13.12.2019г.

Национальный научно-исследовательский институт  
возобновляемых источников энергии при Министерстве  
энергетики Республики Узбекистан

Дата поступления  
25.04.2025

## ПРИМЕНЕНИЕ НАКОПИТЕЛЕЙ ЭНЕРГИИ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ НАДЕЖНОСТИ ЭНЕРГОСИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА

В статье рассмотрены вопросы применения систем накопления электроэнергии – важной составляющей запущенного в Узбекистане энергетического перехода. Такие системы отнесены к компонентам новой интеллектуальной энергетики на основе умных энергетических технологий, рынок которых расширяется в контексте роста финансирования новой энергетики. Определена роль интеграции в энергосистему накопителей энергии в обеспечении устойчивой работы объединенной энергосистемы. Исследованы типы накопителей энергии для внедрения в энергосистему Узбекистана.

**Ключевые слова:** энергосистема, накопители энергии, надежность, безопасность, резерв, интеграция, возобновляемая энергетика.

Ш.В. Хамидов, Р.М. Танирбергенов, Б.Р. Нормурадов

### Ўзбекистон энергия тизимининг ишончилигини ошириш мақсадида энергия тўплагичларидан фойдаланиш

Мақолада Ўзбекистонда бошланган энергия ўтишининг муҳим таркибий қисми ҳисобланган энергия сақлаш тизимларини қўллаш масалалари таҳлил қилинган. Бу тизимлар ақлли энергия технологияларига асосланган янги интеллектуал энергетика секторининг элементлари сифатида таснифланади. Янги энергетика ташаббусларига йўналтирилаётган маблағларнинг кўпайиши натижасида бундай технологиялар бозори тобора кенгайиб бормоқда. Энергия сақлаш қурилмаларини энергия тизимига интеграциялашнинг бирлашган энергия тизимининг барқарор ишлашини таъминлашдаги аҳамияти аниқланди. Ўзбекистон энергия тизимида жорий этиш учун энергия сақлаш қурилмаларининг турлари тадқиқ этилди.

**Таянч сўзлар:** энергия тизими, энергия сақлаш қурилмалари, ишончилиқ, хавфсизлик, захира, интеграция, қайта тикланувчи энергетика.

Sh.V. Khamidov, R.M. Tanirbergenov, B.R. Normuradov

### Application of Energy Storage Systems to enhance the reliability of Uzbekistan's power grid

The article considers the application of energy storage systems, an important component of the energy transition launched in Uzbekistan. These systems are classified as elements of the new smart energy sector based on intelligent energy technologies. The market for such technologies is expanding in the context of increased funding for new energy initiatives. The role of energy storage integration into the power system in ensuring stable operation of the unified power grid has been determined. Types of energy storage devices for implementation in Uzbekistan's power system have been investigated.

**Keywords:** power system, energy storage, reliability, safety, reserve, integration, renewable energy.

Мировая электроэнергетика приступила к интенсивному развитию в контексте интенсивного внедрения автоматизации производственных процессов и цифровых технологий. Значительные изменения, как результат перехода к новым технологиям, происходят в электроэнергетике. Выполненный обзор показывает, что в развитых странах реализуются инновационные сценарии развития энергетических отраслей.

Республике Узбекистан также предстоит решение вопросов, связанных с приоритетами технологической политики и рациональными инструментами к новому энергетическому укладу. Отраслевая стратегия ориентирована на эволюционный подход к развитию энергетики. В ней сформировано понимание того, что реализация инновационного сценария необходима для соответствия мировым трендам решения некоторых имеющихся проблем в обеспечении

надежности и экономичности электроснабжения потребителей энергии. Наряду с этим обеспечение энергоэффективности способствует укреплению энергетической безопасности страны. Имеющиеся резервы энергоэффективности не всегда могут быть реализованы из-за недостатков в законодательной базе или слабого их применения [1].

В последние годы электроэнергетика республики испытывает две серьезные проблемы – это дефицит маневренной мощности и дефицит базовой мощности. В силу ряда причин принцип “производство электрической энергии в каждый момент времени” должен совпадать с ее потреблением, однако, он не выполняется. В результате этого в энергосистеме возникает дефицит мощности и энергии [2 – 4].

При отсутствии систем накопления энергии (СНЭ) возобновляемые источники энергии (ВИЭ) обладают переменной и непредсказуемой генерацией, которая зависит от погоды и времени суток и не позволяет операторам энергосистемы регулировать их мощность. Однако ВИЭ с СНЭ можно рассматривать в качестве распределяемых источников энергии для энергетической системы. Благодаря интеграции различных систем накопления энергии совместно с ВИЭ становится возможным сбалансировать предложение и спрос за счет накопления избыточной энергии, вырабатываемой в периоды высокой активности для последующего использования при низкой активности ВИЭ. СНЭ могут снизить пиковый спрос в часы максимальной нагрузки и сократить потребность в пиковых электростанциях, снизить затраты на генерацию и эксплуатацию энергосистемы. СНЭ также участвуют в стабилизации энергосистемы, предоставляя услуги по регулированию частоты, поддержанию напряжения и необходимого уровня резервирования мощности. С учетом этого ВИЭ с накопителями энергии при их равномерном распределении в энергосистеме следует считать базовой мощностью [5, 6].

При сравнении различных технологий накопления энергии с точки зрения их применимости в электроэнергетике используют различные характеристики накопителей, определяемые их физическими свойствами. К таким характеристикам относятся:

- мощность – определяется величиной, которую может поставить в энергосистему накопитель;
- энергоемкость – энергия, которую накопитель может запасти и поставить в энергосистему;
- время отклика – время перехода накопителя из нерабочего состояния (холостого хода, режима зарядки) в состояние поставки энергии с заявленными параметрами;
- время разряда – время, в течение которого мощность и энергия поставляются в энергосистему без подзарядки;
- плотность мощности и энергии – определяются величинами мощности и энергии, приходящимися на единицу веса накопителя. Эта характеристика имеет значение при транспортировке накопителей или в случае передвижных накопителей;
- суммарная эффективность СНЭ определяется процентным соотношением энергии, полученной при разрядке, к энергии, затраченной на накопление энергии.

Согласно экспертным данным исследовательской компании Frost & Sullivan (Smart Energy International), среднегодовые темпы роста мирового рынка накопителей энергии до 2030 г. достигнут 23% на фоне глобальных планов по декарбонизации энергетики. Спрос на СНЭ подстегнет расширение использования ВИЭ со снижением стоимости СНЭ. “Есть ряд стран, которые ставят задачу по доведению доли ВИЭ в энергобалансе страны до 50% к 2030 году. ВИЭ-станции

